



## AN ANALYSIS OF THE LAWS OF PEACE IN THE POLITICAL PHILOSOPHY OF NICCOLO MACHIAVELLI

*Dilshod Baxshilloevich Sharipov*

*Senior Lecturer of the Department of Social Sciences*

*Bukhara State Pedagogical Institute*

*e-mail: [dilshodsharipov70007@gmail.com](mailto:dilshodsharipov70007@gmail.com)*

*Bukhara, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** ruler, state, politics, lion, fox, danger, official, minister, state servant, army, people, citizen, morality.

**Received:** 13.05.26

**Accepted:** 14.05.26

**Published:** 15.05.26

**Abstract:** In this small research paper, the author presents his concept of authorship as an example of the editing and criticism of the political philosophy of the Italian Thinker N. Machiavelli in *The Ruler*. The essence and roots of N. Machiavelli's advice and recommendations to the ruler are explained, some laws that do not correspond to the essence of humanity and peace are denied, and examples of political wisdom that are suitable for them are presented in the form of opinion, analysis, conclusion, and law. It also presents brief conclusions about the nature of the ruler, his policies, the laws on which he relies in governing the state, the virtues of the ruler, the types of rulers, and the state of peace, a new concept in political philosophy. In this concept, morality itself is proved as a criterion determining the essence - as a law of laws.

---

## NIKKOLO MAKIAVELLI SIYOSAT FALSAFASIDA TINCHLIK QONUNIYATLARI TAHLILI

*Dilshod Baxshilloevich Sharipov*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi,*

*e-mail: [dilshodsharipov70007@gmail.com](mailto:dilshodsharipov70007@gmail.com)*

*Buxoro, O‘zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit soʻzlar:** hukmdor, davlat, siyosat, sherxon, tulki, xavf, mansabdor, vazir, dalat xizmatchisi, qoʻshin, odamlar, fuqaro, axloq.

**Annotatsiya:** Ushbu kichik tadqiqot ishida muallif italyan mutafakkiri N.Makiavellining “Hukmdor” asaridagi siyosat falsafasining tahriri va tanqidi misolida oʻzining mualliflik konsepsiyasini taqdim etgan. N.Makiavellining hukmdorga nasihat va tavsiyalarining mazmun-mohiyati va ildizlari sharhlangan, ayrim insonparvarlik va tinchlik mohiyatiga toʻgʻri kelmaydigan qonuniyatlari inkor etilgan va ularning oʻrniga munosib keladigan siyosiy donishmandlik namunalari fikr, tahlil, xulosa, qonuniyat tarzida keltirilgan. Shuningdek, hukmdorning tabiati, siyosati, davlatni boshqarishda tayanadigan qonuniyatlari, hukmdorning fazilatlari, hukmdorlarning turlari, siyosat falsafasida yangi konsepsiya boʻlgan tinchlik davlati toʻgʻrisidagi muxtasar xulosalar bayon qilingan. Bu konsepsiyada axloqning oʻzi mohiyat belgilovchi mezon sifatida – qonuniyatlar qonuniyati sifatida isbotlab berilgan.

---

## АНАЛИЗ ЗАКОНОВ МИРА В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ НИККОЛО МАКИАВЕЛЛИ

*Дилшод Бахшиллоевич Шарипов*

*Старший преподаватель кафедры «Социальные науки»*

*Бухарский государственный педагогический институт*

*e-mail: [dilshodsharipov70007@gmail.com](mailto:dilshodsharipov70007@gmail.com)*

*Бухара, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** правитель, государство, политика, лев, лиса, опасность, чиновник, министр, государственный служащий, армия, народ, гражданин, мораль.

**Аннотация:** В этой небольшой исследовательской работе автор представляет свою концепцию авторства как пример редактирования и критики политической философии итальянского мыслителя Н. Макиавелли в трактате «Правитель». В статье разъясняются суть и истоки советов и рекомендаций Н. Макиавелли правителю, опровергаются некоторые законы, не соответствующие сущности гуманизма и мира, и приводятся примеры политической мудрости, которые в данном случае уместны, в форме мнений, анализа, выводов и законов. В нем также представлены краткие выводы о природе

правителя, его политике, законах, на которые он опирается при управлении государством, достоинствах правителя, типах правителей и состоянии мира — новом понятии в политической философии. В этой концепции сама мораль рассматривается как критерий, определяющий сущность, — как закон законов.

---

**Kirish.** Siyosat va siyosat ilmi tarixida N.Makiavellining (1469-1527) alohida o‘rni bor. O‘zi italiyalik siyosatchi, mutafakkir, harbiy san’at bo‘yicha mutaxassis bo‘lib, to‘liq ismi Nikkolo di Bernardo Makiavellidir. Siyosatni bevosita kuch ishlatish vositasidir, deb hisoblab, ushbu atama mohiyatini faqatgina harbiy qo‘shin (askarlar, armiya) va hukmdorning donoligi bilan o‘lchagan. N. Makiavelli Florensiya hukumatida ayrim mansablarga ega bo‘lgan, xususan, Florensiya Respublikasining diplomtik aloqalar uchun mas’uli – ikkinchi kanselyariya kotibi, maslahatchi lavozimlarida ishlagan[1]. N. Makiavelli “Hukmdor”, “Tita Liviyaning birinchi dekadasi haqida mulohazalar”, “Harbiy san’at haqida”[2:672] nomli asarlarni yozgan.

N. Makiavellining “Hukmdor” asari nafaqat, o‘zi mansub bo‘lgan Italiyadagi “Uyg‘onish davri”, balki, undan keyingi barcha davrlarda jahon bo‘ylab ko‘plab siyosatchilar tomonidan ko‘p murojaat qilinadigan asarga aylangan. Sababi N.Makiavelli bo‘yicha, siyosatni belgilovchi mezon kuchdir, axloq emas. Bu esa keyingi davrlarda ko‘pgina despotizmga moyil siyosatchilarning avlodini yetishtirdi. Tarixda o‘tgan ko‘pchilik siyosatchilar o‘zining despotik yetakchi bo‘lganini bilishmaydi ham, ayniqsa, har ikkala jahon urushlari davridagi siyosiy yetakchilar bunga yorqin misoldir. N. Makiavelli yozadi: “Shuning uchun ham zo‘ravonlik qilish payti kelganida ehtiyotkor hukmdor buning uddasidan chiqqa olmay, halokatga uchraydi. Agar uning fe’li zamonga va sharoitga qarab o‘zgarsa edi, uning rohat-farog‘ati doimiy bo‘lur edi” [3].

**ASOSIY QISM.** N. Makiavelli hukmdor zamonga moslashib, o‘z siyosiy hokimiyatini mustahkamlash yo‘lida qo‘shini va raiyati ustidan kuch ishlatishi mumkinligini, shuningdek, ham insoniy, ham hayvoniy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirishi va “goh sherga, goh tulkiga o‘xshashi” [3:105] kerak, deb hisoblaydi: “Demak, hukmdor ham insonning, ham hayvonning tabiatida bor xislatlarni o‘zlashtirib olmog‘i lozim ekan” [3:94]. Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, keyinchalik T.Gobbsning davlatni tushunish borasidagi Injildan olingan mulohazasidagi Leviafan, ya’ni betartiblik, cheksiz kuchni ifodalovchi dengiz yirtqichi haqidagi asari paydo bo‘ldiki, uni Xudoga qarshi ulkan ilon tasvirida nazarda tutilgan bo‘lib, o‘z davri uchun davlat

hokimiyatini ifodlaganini anglashimiz mumkin [4]. Bu ham klassik mifologiyaga murojaatning bir ko‘rinishining siyosiy analogiyaga ko‘chishidir, deyishimiz mumkin.

N.Makiavelli fikricha esa hukmdor barcha hayvonlar ichida “sher va tulkiga o‘xshasin”, deydi: “Sher qopqonlardan, tulki esa bo‘rilardan qo‘rqadi, demak, qopqonlarga chap berish uchun tulkiga, bo‘rilarni haydab yuborish uchun esa sherga o‘xshash kerak. Har doim sherga o‘xshab yurgan odam qopqonni sezmay qolishi mumkin” [3:95].

N. Makiavelli siyosat falsafasi mantig‘i shundaki, hukmdor o‘zi inson bo‘la turib, ham sher, ham tulki sifatli bo‘lsinki, shu orqaligina u o‘z siyosiy hokimiyatini uch sharoitda – ham raiyati ustidan, ham zodagonlari va qo‘shini ustidan, hamki xalqaro aloqalarda qat‘iyan mustahkamlaydi, deb hisoblagan. “Hukmdor” asari faqatgina shuning uchun yozilgandi – hukmdorni siyosiy jihatdan “yaratish” va bu “portret”ni xalq ko‘z o‘ngida qanday qilib ulug‘vor, shon-shavkatli, o‘rni kelsa, mas‘um, qahramon qilib ko‘rsatish yo‘l-yo‘rig‘iga bag‘ishlangan. N.Makiavelli siyosiy mantig‘ida siyosat harbiy salohiyat natijasidir, siyosiy hokimiyat har qaysi yo‘l bilan bo‘lsa hamki, ushlab turilishi kerak. Odamlar esa yaratilgan “portret”ga ishonib ketaverishi lozim.

N. Makiavelli fikricha, odamlar yomon bo‘lgani uchun o‘z va‘dasida turmaydi, shuning uchun ham hukmdor ularga nisbatan shunday muomala qilishi kerak – bu yerda hukmdorni o‘z va‘dasida turmaslikka ilhomlantirilib, xalq ko‘zidan hukmdorda yoki azaldan bo‘lgan, yoki paydo qilingan yangi xislatlar – munofiqlik, yolg‘onchilikni yashirishni tavsiya qilgan: “qancha-qancha sulh shartnomalari, qancha-qancha bitimlar hukmdorlar va‘dasini buzgani uchun kuchga kirmagan yoki barbod bo‘lgan, ammo tulki tabiatli odamlar doim yutib ketavergan. Biroq bunday tabiatni hali ko‘zdan yashira olish ham kerak, buning uchun yaxshigina yolg‘onchi va munofiq ham bo‘lish kerak, odamlar esa shunaqangi soddaki, burning tagidagi ehtiyojlar bilan shunaqangi bandki, aldayman degan odam aldanadigan odamni istagan paytda topa oladi” [3:95]. Siyosiy fanlarda bu hodisa lyumpenizatsiya deyiladi. Bu bilan N. Makiavelli odamlar azaldan o‘z ehtiyojlari bilan ovvora bo‘lib o‘tishadi, ularni aldash qiyin emas, hukmdor esa barcha fazilatlarga ega bo‘lmasligi, hattoki, ega bo‘lishi ham, shart emas, deydi: “Demak, hukmdor yuqorida aytib o‘tilgan fazilatlarga ega bo‘lishi shart emas, ammo o‘zini ularga egadek qilib ko‘rsata olish nihoyatda zarurdir” [3:96].

N. Makiavelli nazdida, hukmdor vaziyatga qarab o‘zgaruvchan bo‘lishi kerakki, “imkon qadar yaxshilikdan uzoqlashmaslikka, ammo zarur bo‘lib qolsa, yomonlikdan ham hazar qilmaslikka tayyor turishi lozim” [3:96]. Bu g‘oya asosida keyinchalik makiavellizm oqimi real siyosatda, “qamchi va kulcha” qonuniyatini ishlab chiqqan. Ma‘lumki, qamchi savalash uchun, kulcha og‘izni shirin qilish uchun ishlatiladi – bu ikkala jihat real siyosat bo‘yicha, siyosatda siyosiy hokimiyatni ushlab turish yoki mustahkamlashda aks etadi. Makiavelli yozadi: “Barcha

odamlarning, ayniqsa, sudga tortib bo'lmaydigan hukmdorlarning hatti-harakatlariga natijaga qarab baho beriladi, shuning uchun hukmdorlar hokimiyatni qo'lda tutib turishga va g'alaba qozonishga harakat qilishsin. Buning uchun qanday vositalarga qo'l urmang, ularni har doim munosib deb bilishadi, ma'qullashadi, chunki avom xalq faqat zohirga va muvaffaqiyatga mahliyo bo'ladi, dunyoda esa avom xalqdan boshqa narsa yo'q, ko'pchilikning ortida davlat turganda kamchilikka o'rin qolmaydi" [3:97].

N.Makiavellining "qanday vositalarga qo'l urmang, ularni har doim munosib deb bilishadi, ma'qullashadi" degan fikri asosida hukmdorning kuch ishlatish va qon to'kishni oqlaydigan siyosatining "maqsad vositani oqlaydi" degan qonuniyati shakllangan bo'lib, ushbu qonuniyatni makiavelizm oqimi va keyinchalik xalqaro munosabatlarning siyosiy realizm maktabi vakillari xalqaro siyosatning mohiyati sifatida, uning maqsadi esa bevosita siyosiy hokimiyatning o'zi – uni egallash, saqlab qolish va mustahkamlashdir, degan xulosaga kelishgan.

N. Makiavelli hukmdorni ta'qib qilishi mumkin bo'lgan ikki xil siyosiy xavfni farqlaydi:

- birinchisi, ichki, fuqarolar tomonidan keladigan xatarlardir;
- ikkinchisi tashqi, kuchli qo'shinlar tomonidan keladigan xatarlardir.

Fuqarolar tomonidan keladigan siyosiy xavf fitnalardir: "Fuqarolarga kelsak, tinchlik paytida xavfsirash lozim bo'lgan birgina narsa – maxfiy fitnalardir" [3:99]. Bunga qarshi kurashishning eng asosiy chorasi esa "fuqaroning nafratini qo'zg'amaslik, xalqning ko'nglini olish"dir [3:99]. N.Makiavelli yozadi: "Fitnaning oldini olishning barcha usullari ichida eng ishonchlisi – xalqning nafratiga uchramaslikdir" [3:99].

Hukmdorni ta'qib etishi mumkin bo'lgan ikkinchi xatar, ya'ni tashqi xavfni esa "yaxshi qo'shin va yaxshi ittifoqchilar yordamida daf qilish mumkin". Uningcha, "yaxshi qo'shini bor odam yaxshi ittifoqchilarni ham topa oladi". Bu yerda davlat tinchligini ta'minlashning asosi sifatida tashqi xavflarni bartaraf etish va jamiyat ichidagi siyosiy qatlamlarning maxfiy fitnalarini fosh etish ekanligini ko'rsatilgan: "Tashqi xatarlar daf qilinsa va hukm sura boshlagan bu tinchlikni maxfiy fitnalar buzmasa, ichkarida ham tinchlik saqlanadi" [3:99].

Shuningdek, N. Makiavelli fikricha, tinchlikni saqlashning yana bir muhim omili – bu tashqi dushman hujum qilganida hukmdorning ruhan tushkunlikka tushmasligidir: "Biroq, tashqaridan hujum bo'lganda ham hukmdor ruhan tushkunlikka tushmasligi lozim..." [3:99].

N. Makiavelli yozadi: "Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, agar hukmdor xalqning mehrini qozongan bo'lsa, fitnalardan qo'rqmasligi mumkin va aksincha, agar xalq uni yomon ko'rsa, hammadan va har kimdan qo'rqishi kerak"[3:101]. Demak, hukmdorning yagona oliy fazifasi o'z xalqining mehrini qozonishdir. Endi, jumlaning ikkinchi qismiga kelsak – "agar xalq uni yomon

ko'rsa, hammadan va har kimdan qo'rqishi kerak" – yaxshi hukmdor hech vaqt o'z xalqini yomon ko'rmasa, uni yomon ko'rishmaydi, degan axloqiy tamoyilga asoslanish kerakki, demak, siyosatning mezonlarini sof axloqqa qaytarish va axloqni siyosiyashtirmaslik kerakligini ko'rsatadi. Siyosat axloqdan kelib chiqishi kerak, aksincha emas. Agarki, siyosat axloqdan kelib chiqsa, unda hukmdor ma'rifatli hukidordir. Agarki, axloqni siyosat belgilasa, unda hukmdor, despotik hukmdordir. Chunki siyosatning toju taxti axloqdan kelib chiqmasa, unda siyosat yashirin yoki oshkora zulmni oqlaydi va qo'llaydi.

Axloq siyosiyashtirdimi, unda, ichki kurashlar oqibatida qon to'kishni ham, nizo, adovat, fitna, urushni ham oqlaydigan, hattoki, din yoki axloqning o'zi bilan yuqoridagi salbiy illatlarni oqlaydiganlar hukm yurita boshlaydi, siyosiy hokimiyatni egallaydi; hukmdor atrofida bunday toifalarning bo'lishi esa siyosatda, o'rta asrlar feodalizm davrida bo'lgani singari, zodagonlar ruhining milliy ruhiyatdan ustunlik qilishiga olib keladi, jumla taraqqiyotning kushandasiga aylanadi. Bu jumla Salb yurishlari, dragonat, inkvizitsiya kabi Yevropa tarixida sodir bo'lgan qon to'kishlarning aynan oqlanishi va mustabidlikning o'rnatilishiga olib keldi. Bu tarixdir.

Mustabid va despotik davlatda axloq hukmdorning poshnasi ostidadir, insonparvar, har qanday davlatda esa, axloq hukmdorning siyosat mahzanidir, boshidagi tojidir, asl taxtidir. Axloq hukmdor ichki olamining tarozusidir. Uning bir pallasida adolat bo'lsa, ikkinchisida vijdon bo'ladi. Tarozuda o'lehanadigan narsalar esa adolat va vijdon doirasida o'lehanishi kerak, bu tarozuning yaratuvchisi esa Haqning yolg'iz O'zidir.

Axloqli hukmdorning farmoni ado etilishi kerak, chunki uning xulqi nabaviy xulq bilan xulqlangandir. Sharq siyosat falsafasidan bir misol keltiramiz. Kaykovus "Qobusnoma"da yozadi: "Podshohlig'ingda hech odamning farmoningni xor tutishiga yo'l qo'yma, so'zingni xor tutma – o'zingni xor tutg'on bo'lursan, nedinkim, podshohlikning rohati amrini yuritmoqdadir, yo'q ersa podshoh bila raiyatning xulqi birdek bo'lib qolur. Podshoh bila raiyatning farqi farmonbardorlikdadur" [5:193]. Xulosa shuki, axloqli hukmdorning xulqi uning farmonlarida aks etishi kerak va raiyat umumaxloqqa itoat etishi kerak – agarki bu faqat va faqat nabaviy xulq bilan xulqlangan bo'lsa, bu sharti avvali itoatdir.

Alohida ta'kidlash o'rinliki, raiyatni esa o'z holiga qo'yib bo'lmaydi, axloq masalasida ham. Sababi fuqaro faqat o'z nafsi va umrguzaronligini o'ylaydi, hukmdor esa nafaqat shu xalq, balki u istiqomat qiladigan butun sarhadlari bilan bepoyon bo'lgan o'z Vatanining kechasi, buguni va istiqboli bilan o'ylaydi – albatta, hukmdor va raiyat xulqi bu o'rinda bir xil bo'lolmaydi, lekin sunnani nabaviyni mahkam tutgan hukmdor va raiyatning xulqi bir, hukmdori odil va dono va u chiqaradigan farmonlar to'la-to'kis ado etiladigan bo'ladi. Ushbu o'rinda hukmdor shunchalar

oliyjanob bo'lishi kerakki, bu uning nufuziga mos kelsin. Lekin uning bu mavqeidan foydalanishlariga yo'l qo'ymas. Ayrim narsalarning qadri esa vaqt o'tgandan keyin bilina boshlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, an'anaviy klassik monarxiyalarda (bu hozirda ayrim arab davlatlarida saqlanib qolgan) sulolaviy boshqaruv ustunlik qilganki, sulolaning mavjud bo'lishi davlat boshqaruvi, siyosati va yaxlit jamiyatning bir butun holdagi tinchlik kafolati sanalgan. Deylik, N. Makiavelli "Hukmdor" asarida Bentilvoli sulolasi haqidagi ajoyib namunasi, hattoki, zodagonlar tish-tirnog'i bilan o'lgan siyosiy hokimiyat tepasiga chaqaloq bo'lgan messer Jovannini ulg'ayishiga qadar o'sha urug'ning uzoqroq qondoshi bo'lgan oddiy bir temirchining o'g'li hukumatni chaqaloq voyaga yetguncha, ya'ni vaqtincha bo'lsin, boshqarishini keltirishi misol bo'la oladi[3:100-101]. Bu bilan klassik monarxiya tuzumlarda faqatgina bitta sulola boshqaruvi davlatchilik ustuni va tinchlik kafili sifatida ko'rilgan.

Ayni paytda zamonaviy davlatchilik qurilishi va boshqaruvida klassik monarxiya bilan aloqa o'rnatadigan va uni mustahkamlashni o'ylaydigan siyosiy yetakchi yoki siyosatchi, avvalo, o'sha sulola rahbariga yuksak hurmat bajo keltirishi va tuziladigan bitimlar o'sha sulola mavjudligiga maxfiy fitna yoki ichki ayirmachilikni targ'ib qilmasligi kerak – bunga nihoyatda daqiq va ehtiyotkor munosabatda bo'lish lozim.

Sulolaviy munosabatlarda pul, boylik, oltin, mulk kabi moddiy qiymatlar muhimdir, lekin undan ham eng muhimi esa an'anaviy sulolaviy qadriyatlar va ularning umrboqiyliги hisoblanadi. Shu sababli ham zamonaviy hukmdorlar zamonaviy siyosatning nozik diplomatik etikaga oid tomonlaridan tashqari, tarixiy va konservativ jihatlarini ham inobatga olishlari kerakdir. Ko'p kuzatyapmizki, jahon siyosatidagi liberalizmning hukmron mafkura o'rniga o'zini qo'yishi dunyo tartibotida konservativ mafkuralar va umuman liberal g'oyalarning o'ziga ham rahna solmoqda. Chunki dunyo siyosati yakka mafkuradan anchayin kengroqdir.

Siyosatda eng yaxshi ish sulolalar bilan ko'rilgan ishdir, sababi sulolalar har doim o'zini saqlab qolishni o'ylaydi, o'z davlat boshqaruvida va xalqaro aloqalarida tarixiylikni, o'zaro ishonch va hamkorlikni saqlab qoladi, konservativ ruh va barqaror, doimiy munosabatlardan manfaatdor bo'ladi. Kamdan-kam hollarda keskin qarorlarga kelishadi. Shu sababli insoniyat tarixidagi umuminsoniy g'alaba, tinchlik va qadriyatlarning saqlanib qolishi ham aslida konservatizm falsafasi bilan sug'orilgan sulolaviy baqarorlikka yoki sulolalar barqarorligiga bog'liq bo'lgan, xususan, har ikki jahon urushidagi g'alaba aslida barqaror siyosiy elitalar g'alabasidan o'zga narsa emas edi. Aslida, tarix sulolalar tarixidan iboratdir, hech bo'lmasa,

kamida siyosat tarixi shundaydir. XX asr boshlariga qadar butun insoniyat sarzamini sulolalar hukmronligi ostida edi, biz, shuni insoniyat yoki jahon tarixi, deb o‘rganamiz.

Shu sababli ham N. Makiavelli hukmdorni tarixni bilishga, tarixiy asarlarni ko‘proq o‘qib, tahlil va tafakkur qilishga, siyosiy mag‘lubiyatning oldini olish choralarini o‘rganishga chaqirgan. Bu o‘rinda hukmdor eng ko‘p o‘qiydigan shaxsdir, yoki shunday bo‘lishi shartdir, sababi u nafaqat o‘z siyosiy hokimiyatini mustahkamlashni, balki, fuqarosining farovonligi va tinchligini ham o‘ylashi, o‘ylaganda ham chuqur o‘ylashi (butun umr o‘ylab yurib, vatanparvarlik g‘oyasini esdan forig‘ qilmay, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi) kerak: “Fikrlashga keladigan bo‘lsak, hukmdor tarixiy asarlarni ko‘p o‘qishi, shu asnoda mashhur sarkardalarning tutgan yo‘llarini alohida o‘rganishi, ular jangni qanday olib borgani, g‘alabaga yoki mag‘lubiyatga nimalar sabab bo‘lganini tahlil qilishi va shu yo‘l orqali g‘alabaga erishishi yoki mag‘lubiyatning oldini olishi kerak”[3:83].

N. Makiavelli davridagi davlat harbiy ustunlikka qurilgan klassik monarxik davlatdir, unda harbiy san‘at hukmdor ishining uzviy qismi, deb hisoblangan. Olim nazdida, hukmdor yarmi harbiy, yarmi siyosiy jasur shaxs bo‘lib, har doim harbiy mashqlarni bajarishi va harbiy ishida chiniqqan bo‘lishi lozim, bu ham tarixda siyosiy faoliyatning turi va tarkibiy qismi hisoblangan. “Shuning uchun hukmdor harbiy mashqlarni to‘xtatishni xayoliga ham keltira ko‘rmasligi, aksincha, urush paytidan ko‘ra tinchlik davrida bu mashqlarga yanada zo‘r berishi lozim”[3:82], deydi. Buni zamonaviy siyosiy faoliyatda davlat rahbarining xavfsizligini ta‘minlovchi shaxsiy xavfsizlik kuchlariga oid band, deb ta‘kidlash mumkin, xolos. Chunki zamonaviy hukmdor harbiy mashqlarni o‘zi bajaruvchi bo‘lmasligi kerak – bu aslo uning ishi emasdir, tan soqchilar va harbiylar ishidir, balki, o‘z sihhati-sog‘ligini o‘ylashi, doimiy tarzda lozim sport turi bilan shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarzini yuritishi, doimiy harakatda bo‘lishi joizdirki, xalqqa mas‘ul qilingan shaxs avvalo sog‘-solim bo‘lishi zarurdir. Ota sog‘lom bo‘lsa, uyda bolalar och qolmaydi va uy tinch-xotirjam bo‘ladi.

N. Makiavelli yana yozadi: “Harbiy mashqlar avvalo amaldan, qolaversa, fikr yuritishdan iborat bo‘ladi”. Zamonaviy siyosiy fanda bu yo‘nalish geostrategiya, deb atalib, davlat qulay geosiyosiy vaziyatidan foydalanishdan tortib, noqulay geosiyosiy holatdagi ikkilanish jarayonidagi ma‘lum davlatning qulay xavfsizlik yo‘lini ta‘minlashga oid tafakkurini ifodalaydi. Bundan tashqari, harbiy ishini fikr yuritishdan iboratdir, deyishi aynan tarixda o‘tgan barcha sarkardalar, buyuk imperiyalar qurgan podshohlardan tortib, barcha militaristik, fashistik, avtoritar diktatura, totalitar, hattoki, zamonaviy demokratik tuzumlarining yetakchi siyosiy g‘oyalari ham ifodalaydi.

N. Makiavelli yozadi: “Harbiy san’atga beparvo bo‘lish taxtni boy berishning asosiy sababi bo‘lsa, bu san’atni egallash hokimiyatni qo‘lga kiritishning asosiy omilidir” . Ayniqsa, hozirgi vaqtlarda jahon tartiboti masalalarida yuksak harbiy texnologiyalarga egalik, ustunlik uchun kurash avj olishiga sabab ham jahon siyosatida kuch-qudrat markazlarining o‘z hokimiyatining ustunligiga erishish yoki shu yo‘lni aniqlashtirish yoki aynan siyosiy yetakchilik uchun o‘z status-quosini o‘rnatish uchun kurashdir, deb hisoblash mumkin. Chunki klassik tushunilishda siyosat san’ati o‘z ichiga harbiy san’atni ham qamrab olgandi. Lekin jahon sahnasidagi yetakchilik uchun kurash, kuchlining kuchsiz ustidan yuritiladigan faoliyati, siyosiy hokimiyat otadigan o‘q yoki nayzaning nishoni bo‘lmasligi kerak, bu xalqaro huquqqa butunlay ziddir. Podshohlar, siyosatchilar keladi-ketadi, lekin insoniyat uzra ma’lum nom ostida xalqlar qolaveradi.

Shuningdek, zamonaviy siyosiy yetakchilarning aqliy javhari gumanizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lishi kerak. Chunki ular inson ustidan siyosat yuritadilar, shu inson farovonligi va uning hayoti uchun kurashadilar. Siyosat kurashlar tarixidan iborat bo‘lsa, hukmdorlar bu tarixning yozuvchisidir. Faqat bunda hukmdorning o‘zigina inson, fuqarosi emas, degan siyosiy yo‘rig‘, ustunlik qilmasa bo‘ldi. Bu yerda siyosiy faoliyat uchun “oltin o‘rtalik” tamoyili afzaldirki, hukmdor hukmini o‘tkazsin, xalqi ham aziyat chekmasin.

Huquq tan olinmagan siyosat, despotik siyosatdir, chunki unda axloq yo‘q. Huquq va siyosat, uning har qanday shakli, axloqqa, faqat va faqat axloqqa tayansagina, bu davlat insonparvar davlat, deb ataladi va tabiatan tinchlik davlati bo‘ladi. Chunki bunday tushunilishda axloq mohiyatini insonning o‘zi tashkil etadi.

Munosabatlar tuguni va yechimi axloqqa taqalganidagina inson masalasi kun tartibiga chiqadi. Ammo siyosatda axloq o‘rtadan ko‘tarilgan mahali inson ham kun tartibidan tushadi. Mohiyatan insonga yo‘naltirilmagan g‘oya, o‘lik g‘oyadir. Mohiyatan insonga xizmat qilmagan narsa, fikr, g‘oya, hodisa, faoliyat insondan tashqaridagi hodisadir.

Inson, uning hayoti, haq-huquqi, axloq bo‘lsagina mavjud bo‘ladi, ta’minlanadi, inson yuksaladi, kamolotga erishadi – mana, sivilizatsiyaga yetishning eng to‘g‘ri yo‘li, lekin eng qiyini hamdir. Chunki bu yerda inson tabiatidagi o‘zini, o‘z “Men”ini isloh qilish g‘oyasi ham bordir. Islohot o‘zingni tuzatishingdir, axloqqa qaytishingdir, ulug‘ ibrat-namunalarni ko‘z o‘ngingda gavalantirish va shularga mos harakat qilishingdir. Islohot javhari hargiz axloqni tiriltirishdan o‘zga narsa emasdir. Chunki inson va uning faoliyati u bilan tirik, mavjud, hayot va hayotiydir.

Axloq mezonlar mezonidir, hattoki, olimning ilmida ham axloq aks etadi. Deylik, kimyo olimi qaysi modda qaysi modda bilan reaksiyaga kirishishini yoki kirishmasligini yaxshi biladi va bu hodisa har doim shunday bo‘lgan, bo‘ldi va bo‘ladi ham – to‘g‘ri, buni kimdir fan qonuniyati

deyishi mumkindir. Lekin ilmda, fanda qonuniyat yoki qonuniyatlarning mavjud bo'lishining o'zi shu ilm yoki fan axloqidir, yoki ilm-fan kodeksidir. Butun insoniyat va u yaratgan madaniyat, ilm-fan gullashi, sivilizatsiya shunday rivojlanib kelgan.

Yoki nikoh voyaga yetgan bir yigit va qizning roziligiga asoslangan halol yo'lidir – bu qonuniyatdir, oila qurish qonuniyatidir, ayni paytda shuning o'zi axloqdir, to'la-to'kis axloqdan iboratdir. Bu yerda “voyaga yetgan bir yigit va bir qiz” – birinchi qonuniyat va “rozilik” – ikkinchi qonuniyat – oilaga oid ikkita ijtimoiy qonuniyatlardir. Chunki har ikki qonuniyat bo'lmasa, oila qurilmasdi va oila atalmasdi. Bu yerda davlat oilani rasman tan olish uchun kerakdir – davlat rasman va norasman ham oilalar ehtiyojlarining natijasidir, u shunday paydo bo'lgan.

Endi, nikohning o'zi esa ijtimoiy-huquqiy akt sifatida ijtimoiy qonuniyatdirki, usiz oila barpo bo'lmasdi va oila, deb atalmasdi. Demak, axloq jumla mezonlarni, qonuniyatlarni qamrab oluvchi yagona qonuniyatdir.

Yoki qonunni olaylik. Davlat qonunlarni ishlab chiqishda amal qiladigan tamoyillar mag'zini axloq tarozusiga o'lchash kerakki, qay yerda qaysi qonun yoki qoida, me'yor axloqsiz qabul qilinsa, u xalq qalbidan o'rin ololmaydi. Ha, rasman u bor, lekin amalda hech qiymati yo'qdir – huquqiy ong mazmunini tashkil etgan emasdir.

Demak, kimki, axloqdan tashqari chiqsa, tanazzulga mahkumdur – xoh bu oilada bo'lsin, madaniyatga oid bo'lsin, jamiyat yoki davlat boshqaruviga oid bo'lsin, xoh tarixga oid bo'lsin, xoh tinchlik va umuminsoniy qadriyatlarga oid bo'lsin, farqi yo'qdir. Mezon faqat va faqat axloqdir, undan ortiq qonuniyatning o'zi yo'qdir.

Siyosiy g'oyalar, aynan siyosiy bo'lgani uchun ham, aslida o'z maqsadiga to'kis yetishmaydi. Chunki g'oyalar kamida insoniy va insonga oid bo'lishi kerak, shunda ular hayotiy bo'ladi va tugal maqsadiga yetadi.

Ta'lim, fan, ilm, dunyoqarash, faoliyat, siyosat, huquq va barcha siyosiy va ijtimoiy qadriyatlar insonga xizmat qilishi kerak va ular hayotiy, yerdan uzilmagan bo'lishi kerak. Deylik, bola qishda sovuq qotmasligi uchun qishdan oldin unga qish kiyimlari olinishi kerak, hali tengqurlari doirasida “el qatori” ham bo'lishi kerakdir. Buning uchun oddiy insoniy sharoit kerakdir. Sharoitning tizgini esa to'g'rilik, tenglik, halollik, adolat, mehr va ibrat bilan tartibga solinishi kerakdur. Sababi tadoriki ko'rilmagan ishning umri qisqa, narsaning esa zavolidir. Inson pulni yaratdi – bu qonuniyat va taraqqiyotdir, pul insonni “yaratsa” yoki yengsa – bu tanazzul, fojeadir. Shuningdek, kelajakka, xususan, ta'limga bugun ajratilgan bir sent ertaga millionlar ko'rinishida qaytishi mumkin. Buning uchun ilmni, olimni yaxshi rag'batlantirish yo'rig'ini mahkam tutish kerak. Albatta, ehtiyojlar insonlarni bugungi kunda yashab qolish va ertangi kun

tadorikini ko‘rishga undasa, davlatlar ham shu oddiy inson va uning ehtiyojlari singari bugun yashab qolish va ertangi kunda istiqbolini belgilashga intilishi tabiiydir. Faqatgina bunda aql, ilm va uzoqni ko‘zlash qadamlari kerakdir.

Siyosat davlatning shunday yo‘rig‘i ilmidir, pul va aql uni amalga oshirish yo‘lidir. Kuch ishlatib, zo‘ravonlik qilib biror davlat barqaror taraqqiyotga erisholmaydi, xalqaro hamjamiyatda ham o‘ziga teng ko‘rilmaydi. Bunda g‘oyalar kerakdir. G‘oya insonni oldinga yetaklagani kabi, sog‘lom g‘oya uni ko‘kartiradi, yashnatadi, yuksaltiradi. Davlatga esa gullab-yashnash yo‘li faqatgina milliy g‘oyasidadir. Davlatga milliy g‘oya kerakdir – yashab qolish uchun, teng va mustaqil bo‘lish uchun, boy va behojat bo‘lishi uchun ham, u kerakli g‘oyadir. Tinchlik va bag‘rikenglik, hamdo‘stlik va hamjihatlik faqatgina axloqqa tayanib, milliy g‘oya ustunlarini tashkil etishi lozim. Mana, milliy yetakchilarga – zamonaning qahramonlariga ehtiyoj qanday yuzaga keladi.

Demak, hukmdor shu davlatning tabiiy ravishda yuzaga chiqqan qahramonidir. Uning aqli milliy-davlatning yo rivojlanishi va tinchligini, yoki uning tanazzuli va inqirozini asoslaydi. Zeroki, insoniyat tarixi hukmdorlar tarixidan iboratdir, ko‘p hollarda bu sulolalar tarixi tarzida namoyon bo‘lgan. Oddiy kishilar singari olimlar ham o‘z hukmdorlaridan umid va najot kutadilar, biz, musulmonlar, hukmdor haqqiga duo ham qilamiz. Chunki uning so‘zi yurtning buguni va kelajagi, xalqining huzur-halovati, tinchligi va xotiri jamligi haqidadir, shuning o‘zi kifoyadir. Samandar Termiziy “Hukmdornoma” asarida aytgani kabi “yuzta mohir lashkar qilolmagan ishni, sog‘lom aqlli kishi bitta so‘z bilan to‘g‘irlaydi”.

Masalan, oiladagi farzand qaysidir mevani ertaga emas, bugun yeyishi kerak. Xalqning dasturxonini xalqning mehnati va harakatining mahsulidir. Amaldorning dasturxonini esa xalqning mehnati va o‘zining harakati mahsulidir. Oilada esa kattalarning mehri, duosi, beminnat xizmati tanu jon sihhati va farzandlar saodatidir. Xuddi shundayki, fuqaroning saodati tadbirkor va mehnatkash xalqning tadbirkor va adolatli hukmdorining mehri, samimiyati va sidqidildan qiladigan xolis xizmatining oqibatidir. Albatta, hukmdor saodatli bo‘lmog‘i kerakdur. Chunki baxtli hukmdor xalqini ham baxtiyor qiladi va u shuning uchun bu muqaddas ishga muakkil qilingan. Unda hayotning nima ma‘nosi bor-a?!

To‘g‘ri, balki, jamiyat yaxlit bir oila kabi emasdir, lekin yaxlit va hammaga bir xil bo‘lgan qoidalar kerakdir – bu axloqning ishi, axloqning o‘zidir. Axloq jamiyatni bir butun insondek tutib turguvchi qon tomirlari yanglig‘dir, usiz inson o‘z qiyofasini yo‘qotadi, mohiyatini unutadi, o‘ladi – ma‘naviy qiyofasini yo‘qotadi. Biz, insonni, uning hayotini, haq-huquqlarini, qadriyatlarini asramoqchi bo‘lsak, jamiyatda yakdil axloqni saqlashimiz kerakdir. Axloq bilangina, ha, albatta,

faqat va faqat axloq bilangina umumtinchlikni asrab qolish, uni keyingi avlodga saqlab qolish mumkin.

Axloqsiz jamiyat esa bir suruv qo‘y yanglig‘dir, unda shoxdorlar hukm suradi, bu shoxdorlar boshidagi ikki shoxiga va jismidagi kuchiga mag‘rurlanadi, maqsadi, hattoki, shunchaki suzish bo‘lishi ham mumkin. Davlat va jamiyatga ulug‘ xatarlar shunday yuzaga keladi, axloq toptalganda va keraksiz qoldirilganda, paydo bo‘ladi. Davlatning asl vazifasi o‘z xalqini axloqqa chaqirib turishidir, chunki bu yerda odil hukmdor xalqning ustozidir yanglig‘dir. Agarki, davlat bu ishni bajarmasa, unda boshqalar bu ishni amalga oshiradi. Shuning uchun davlat, hukmdor va insonni o‘zaro tutib turuvchi mezon sof axloqdirki, bu milliy xotira va milliy mentalitetning uzviy va hayotiy tiriklik javharidir. Axloq millat o‘zligining o‘zgarmas va yagona asosidir.

Hayvon insonning bandisidir, inson qo‘liga qaramdir, inson esa Haq taoloning bandasidir. Insoniyat tarixida tanazzulga yuz tutgan barcha qavmlar axloqni o‘rtadan ko‘targan paytlarida shunday bo‘ldilar. “Atlantida”ning g‘arq bo‘lishiga bosh sabab ham axloqsizlikdandir. Haq taoloning to‘g‘ri yo‘lidan chiqish axloqsizlikdir, dinda buning nomi shirkdir, kufrdir. Axloq buzildimi, hamma narsa buziladi, xususan, tabiatdan ilhomlangan jamiyat qonuniyatlari ham. Hamma narsaning yechimi axloqdadir. Muammolar u bilangina yechiladi, hattoki, urush, halokat, har turlik inqirozlar ham.

Xulq insonda bo‘ladi, molda xulq yo‘q. Aql faqat insonda bo‘lishi mumkin. Shu sababli ham inson hayvon darajasiga tushmasligi uchun ham Olloh taolo bandasiga e‘tiqod vositasida xulq ato etgandir, barchaning bunday tartibga solingan xulqini esa axloq, deymiz. Axloq yagonadir, bo‘linmasdir. Barcha ishlar undan kelib chiqishi kerak.

Inson tabiatidagi xulq omili va aql nuri millat tabiatidagi axloq va milliy o‘zlikni belgilaydi. Axloq tirik insonlarning xulqlaridan iboratdir. Agarki, o‘rnak yoki ibrat qilinadigan shaxsning axloqi, xalq yodi va milliy xotirada mavjud bo‘lsa va u ancha asrlar oldin bu dunyodan o‘tgan bo‘lsa hamki, u tirikdir. Chunki axloqi komil barhayotdir, umrboqiydir, ma‘rifatga vositadir. Ma‘rifatli hukmdorning xalqi ham ma‘rifatli bo‘ladi va aksincha. Shuningdek, zakot 7 (etti) toifa haqdorlarga berilishi kerak bo‘lsa, bu haqdorlarga ikki hayit bayramidagina hayitlik berish emas, har doim muruvvat, saxovat va mehr ko‘rguzish hukmdorning asl insoniy va islomiy javharidirki, agarki, shunday bo‘lsa, unda, bunday hukmdorni saxovatli hukmdor, deb ataymiz.

Demakki, tinchlik davlati shunday davlatki, unda davlat, siyosat, faoliyat va ijtimoiy hayot axloqqa asoslanadi va bu davlatning ikkinchi nomi insonparvar davlat bo‘ladi.

Jahon siyosatida esa qaysidir davlat o‘zini tinchliksevar davlat, deb e‘lon qilishi bu faqatgina formal siyosiy etikaga oid bo‘lgan tushunchadir, xolos. Hali bu davlat tinchlik davlati yoki

insonparvar davlat ekanligi noma'lumdir. Chunki axloqiy tamoyillar qandayligi oshkor qilinmagan va davlat siyosati mezonlari ochiqlanmagandir. Agarki shunday davlat bo'lganida, hamma davlatlar bu davlatni o'ziga ideal sifatida tanlagan bo'lishardi. Demak, tinchlik davlati yoki insonparvar davlat qurish jarayoni oson ish emas ekan. Bu faqatgina ma'rifatparvar hukmdorning ishidir, chunki bunday hukmdor, nafaqat, axloqdan kelib chiqqan, balki, uni ilohiy yaratuvchisi hamdir. Demak, bunday hukmdor, agarki mavjud bo'lsa, ilohiy hukmdordir.

Bundan tashqari, N. Makiavelli siyosiy mantig'i bo'yicha, hukmdor tarix o'qishi bilan birga, undan o'ziga siyosiy ideal tanlashi va uning qilgan qahramonliklari yoki ibratli ishlarini o'ziga har doim namuna sifatida yodda saqlashi kerakligini uqtiradi: "Eng muhimi – qadimda o'tgan buyuk insonlarga ergashish, ular orasidan birorta mashhur odamni o'ziga namuna qilib olib, uning qahramonliklari va boshqa ibratli ishlarini doimo yodda tutish kerak" [3:83].

Tarixdan ma'lumki, hukmdor jumla xislatlari bilan xalq ko'z o'ngida fazilatli qilib ko'rsatilgan bo'ladi, siyosiy hokimiyat va uning barcha resurslarini o'z qo'lida tutgan bo'ladi. Shuning uchun ham hukmdor hamma ayonlardan ham ko'ra donoroq, zakiyroq va barcha odamlardan ham fazilatliroq bo'lishi zarur. N.Makiavelli yozadi: "Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hukmdorlarning donoligi yaxshi maslahatlardan kelib chiqmaydi, balki yaxshi maslahat, uni kim berishidan qat'iy nazar, hukmdorlarning donoligidan kelib chiqadi" [3:126].

Siyosiy realizmda ma'naviy fazilatlar, ko'p hollarda, siyosiy yetakchilik bobida, eng oxiridagi masala sifatida qaraladi – muhimi moddiy va siyosiy qiymatlarga oid masalalar ko'rilgan. Siyosatda o'lja keltirgan o'ljalik bo'ladi; tabiatning o'zida esa sherxonlar va sirtlonlar o'rtasida o'lja bo'lishilmaydi. Tabiat qonuni shundayki, sherxonlar sherxon tabiatinigina tushunadi, agarki, sherxon sirtlonlar tabiatini ham tushunganida yoki o'lja bilan bo'lishganida edi – u aslo sherxon bo'lmasdi, sirtlonlardan biri bo'lardi. Hukmdorning sherxonga o'xshashi bu jihatdan ancha foydalidir, chunki xalqiga zulm yetkazmaydi yoki bunga aslo yo'l qo'ymaydi. Sababi azaldan sherxon tabiatida sirtlonlar bilan osh-qatiq bo'lish yotdir. Agarki, sherxon bu kabi masalalarga e'tibor qilmasa, yoki keng yo'l bersa, demak, avvalo, o'zi mansub bo'lgan qavmga – praydga xoinlik qilgan bilan barobar bo'ladi, ikkinchi tomondan esa o'z xalqiga nisbatan bora-bora jabr-zulmga yo'l ochgan bo'ladi. Siyosiy hokimiyat sherxonlar panjasi ostidadir, agarki, shunday emasdir, bu o'zga toifalarning zulmiga bir yo'ldir. Insoniyat tarixidagi jumla despotizm tarixi shundaydir – oddiy bir qonuniyatning buzilishidan kelib chiqqandir.

Despotizm esa jumla nepotizm ildizlarini despot poshnasi ostida tutib turadi, xuddi jumla fuqaro yashab qolishi – hayoti, huquqi, hayot-mamoti hukmdor poshnasi ostida bo'lgani singaridir. Shuningdek, despotik tuzumlarda o'z xalqini istibdodda tutib turish an'anaviy siyosiy hukmdorlik

vositasi bo‘lib kelgan, bunga o‘rta asrlardagi ko‘plab podshohlar tarixi yorqin misoldir. Shu o‘rinda N.Makiavelli “tashqi dushmandan ko‘ra o‘z xalqidan ko‘proq qo‘rqadigan hukmdorlar uchun qal’alar foydali; xalqidan ko‘ra tashqi dushmandan xavfsiyraydigan hukmdorlarga esa qal’alar kerak emas” [3:118], deydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, N. Makiavellining siyosat falsafasidagi hukmdor asliyatiga oid javhar mantig‘ xatoligi shundaki, iqtidor, vijdon, iymon insonda bo‘ladi, yarim hayvon-yarmi inson xislatli kishilarga bu begonadir. Agarki hukmdor ma’naviy yuksalib, komil inson bo‘lmas ekan, unda siyosat, har qaysi uning shakli qiyomatga yaqinlashayotgan bo‘ladi – xalq istibdodi tugamaydi, xalq esa har doimgidek gumroh etiladi. Shu sababli ham xalqqa din kerakdir, hukmdorga esa sof axloq kerak ishdir.

Agarki hukmdor, avval boshdan axloq haqida qayg‘urdimi, qat’iyat ko‘rsatdimi, demakki, u fuqaro va davlat o‘rtasida asrlar davomida siyosatda shakllangan o‘zaro ajratuvchi temir devorni xalqqa yaqinlashish va ulardan biri sifatida o‘zini ko‘rsatish orqali yemirishi mumkin. Bu esa xalq ishonchining tub manbai va hukmdorning asl insoniy mohiyatidir.

Xalq hukmdorning misli va bir-biriga o‘xshashi yo‘q ko‘chatlaridir, yaxshidan bog‘ qolishi kerak, uni sovuqlardan, balo-qazolardan asrab-avaylab, shakl berish, farovon hosil kutish, umid va mehr asosida halol mehnatni rag‘batlantirish usta-bog‘bon qo‘lidadir. Xalqqa mehr berish kerak, bu hukmdorning o‘z xalqidir, shunda yetti iqlimga dong‘i ketgan bog‘u rog‘ qoladi...

Ayni paytda N. Makiavelli hukmdorning shavkati xalqqa va qo‘shinga “g‘ayrioddiy ko‘rinishi”, xalqi qo‘rqishi yoki hayqiqishi, qo‘shini esa tan berishi kerak [3:105], deb hisoblagan. Bularning barchasidan xulosa qilsak, N. Makiavelli siyosiy ta’limotida hukmdor uchun oddiy axloqdan ko‘ra, donishmandlikka bezangan siyosiy axloq qoidalari taklif etilgan – bu esa xuddi nafs shahvoniy hislarni chiroyli qilib ko‘rsatgani kabi qanchalik yoqimli bo‘lmasin, insonparvarlik tamoyillariga butunlay ziddir. Shunday bo‘lsa-da, zamonaviy jahon tartibotining amaliy siyosatida ko‘proq shu kabi ziddiyatlarning hukmdorligini kuzatish mumkin, xolos.

N. Makiavelli yozadi: “Shuning uchun eng yaxshi qal’a – xalqning mehrini qozonishdir: agar xalq sizni yomon ko‘rsa, har qancha qal’a qurmang, ular sizni qutqara olmaydi, chunki xalq qo‘liga qurol olsa, unga har doim ajnabiylar yordamga keladi” [3:115-116]. Demak, xalqning otasi o‘z xalqiga mehrini darig‘ tutmasligi kerak, xususan, olimlarga ham. Chunki faqatgina olim kishilar hukmdor siyosatining me’morlari bo‘lib, ular yaratgan asar, inshoot, musiqa va har qaysi bunyodkor narsa yoki qiymatlik, qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalar yaxshiki, kelajak avlodlar, falon hukmdor davrida unday bino barpo bo‘lgan, bunday asarlar yozilgan kabi eslatmalarga ega

bo'lishadi. Shubhasiz, eng yaxshi hukmdor, olimlarni o'z qanoti ostiga olgan hukmdordir, ayniqsa, oddiy xalqqa, xalqning o'g'lonlari va qizlariga iltifot qilganidir.

Shuningdek, oddiy musulmon fuqaro ko'rgan yaxshiligini unutmaydi, yaxshilik qiluvchi va tinchlik diyori haqqiga duo o'qiydi. Xalqiki chin musulmon bo'lgan hukmdor, eng boy hukmdorki, turmushdagi chorasizlik va iqtisodidagi kamomadini ham shukr va minnatdorlik, havas va poklik tuyg'ulari bilan o'lchaydi. Axloq halol mehnatning peshona terisidan iboratdir. Bu kelajakka tobora yaqinlashib borayotgan bugunning javhari yangi "farovon avlod" g'oyasi, maslagi bo'lishi kerak. Buning uchun tobora "smartlashib" borayotgan avlodni axloqqa qaytarish, ota-onalarni axloq bilangina qurollantirish, boboyu buvilarning pok mehrini jamiyatga qaytarish kerakdir. Bolajonlarning o'z dadasiga bo'lgan pok tuyg'usini so'ndirmaslik kerak, yoshi kattalar bolalardan, yoshi ulug'lar yoshi kattalardan ham axloqliroq bo'lishi kerak. Jamiyatda inson yetim qoldirilmasligi kerak, har kimga mehr ko'rguzish kerak. Farzand "yaxshi inson" siymosini o'z uyida, oilasida ko'rishi kerak va shundan keyingina bu avlodlar zanjiri, biz buni, mehr zanjiri, degan bo'lar edikki, davom etib, kelajak avlodga axloqni pok va buzilmagan holatda meros qoldirib bilamiz va yaxshi insonlar jamiyatini quramiz.

Shu bilan birga, N. Makiavelli siyosat falsafasi bo'yicha, hukmdorning eng muhim vazifasi o'zi haqida buyuk inson siymosini xalq ko'z o'ngida yaratishdir, qolgan barchasi esa ikkilamchidir: "Biroq hukmdor uchun eng muhimi – o'zining barcha xatti-harakatlari bilan o'zi haqida teng yo'l bilan hikmat egasi bo'lmish buyuk inson siymosini yaratishdir" [3:118].

Ayni paytda N. Makiavelli dono odamlarni uch turga bo'ladi:

- kimdir hamma narsaga o'zi erishadi;
- boshqasi birinchisi erishgan narsani tushuna oladi;
- uchinchi esa o'zi ham hech narsaga erishmaydi, boshqalar erishgan narsani ham tushuna olmaydi.

Birinchi buyuk insonlar, ikkinchi – yetuk insonlar, uchinchi esa yaramas odamlardir"[3:122].

Endi, nega N. Makiavelli dono odamlar qatorida "yaramas odamlar"ni ham keltirdi? Chunki siyosatchilar orasida har doim ham yaxshilari bo'lavermaydi, lekin siyosatchilarning barchasi o'zini dono tutadi, deb sharhlashimiz mumkin. Pingvinlarning "qirol pingvinlari" turi bo'lib, faqat mag'rurlikdan boshqa ishi yo'qdir, bo'lmasa, boshqa pingvinlardan aslo farq qilmaydi.

Demak, bu o'rinda siyosatda g'ururga berilgan toifalar ham mavjud bo'lib, dinda kibr shaytoniy xislat sifatida eslatiladi, siyosatchi, agarki u o'zini musulmon sanasa, u musulmon kishi sifatida o'z kibrini sindirishi kerak, oddiy fuqaroning o'zini yoki uning tabiatan mavjud bo'lgan

qonuniy istagini emas. Odamlar ishlarida qonun ish bermaganda yoki yordamga muhtoj bo'lganidagina mansabdorlar yoki siyosatchilarga murojaat qiladi – fuqaro och qolganidan, yoki qorni to'qligidan kelib murojaat qilmaydi, u adolat istaydi. Adolat esa axloqli hukmdorning kundalik ishidir.

Shu bilan birga, bir olim boshqasi ustidan kibransa, yoki olimki, o'z ilmi yoki darajasiga g'ururlansa, unda u sira ham olim emasdir. Sababi ilm insonni kamtar, fe'lini bosiq qiladi, didini noziklashtiradi, qalbini uyg'otadi va u qalbdagi sherxonni paydo qiladi, shubhasiz, agarki, u haqiqiy inson yoki haqiqiy olim bo'lsa. Chunki olim nimadir, yangi ilm yaratishi kerak, shu maqsadda o'zini qiynaydi, izlanadi, mudom o'qiydi, yozadi va bularni beminnat ado etadi va umrining so'ngigacha qadar to'xtatmaydi. Axir, u olimdir. Afsuski, har bir jamiyatda “yaramas odamlar” qatorida olimlari ham mavjud bo'ladi, xuddi, siyosatchilari orasida dag'al, qo'pol, noraso tabiatlilari oz yoki ko'p uchragani kabi. Nizomulmuluk yozadi: “Sufyon Savriy aytadiki, eng yaxshi sulton din ahli bilan o'tirib turuvchidir, ulamolarning eng yomoni sulton bilan o'tirib turuvchisidir”[6:66].

Shuningdek, mansabdorlar nomiga rasmiyatchilik bilan shug'ullanishni yig'ishtirishi kerakki, bu u nomidan ish ko'rayotgan davlatga isnod bo'lib kelishi mumkin. Byurokrat, agarki o'sha oddiy fuqaroning ishini amalda hal qilib bermasa, nafaqat oddiy fuqaroga, o'zi mansub bo'lgan rahbarlik korpusiga, balki, u hukm chiqaradigan tashkilotga va tashkilot mansub bo'lgan davlatga, ayni paytda shu davlat rahbari nomiga ham dog' tushiradi.

N. Makiavelli davlat maslahatchilari, xizmatchilari yoki mansabdorlari “hukmdordan ko'ra, o'zi haqida ko'proq qayg'ursa, har bir ishda o'z foydasini ko'zlasa, u hech qachon yaxshi xizmatchi bo'la olmaydi, hukmdor ham unga ishona olmaydi”, deb ta'kidlaydi. Chunki “davlat ishlari qo'lida bo'lgan vazir o'zi emas, hukmdor haqida o'ylashi va uning huzuriga hukmdorga aloqasi bo'lmagan ish bilan kirmasligi kerak” [3:122], deydi. Ta'kidlash o'rinliki, hukmdorga tunu kun aloqasi bo'lgan yagona doimiy ish – bu o'z xalqining ahvoli haqidagi ishdur: xalq nima yeyapti, nima ichyapti, nima kiyyapti, qanday uyda turibdi, maoshi tirikchiligiga yetyaptimi, xalq kitob o'qiyaptimi, bolasini o'qiyaptimi, kasbu korga yo'naltiryaptimi, ishlayaptimi, o'ziga vatan quryaptimi, bitta bo'lsin ko'chat ekyaptimi va shu kabilarning barchasiga davlat sharoit qilib beryaptimi, deb muntazam o'ylashi kerakdir. Chunki qiyomat kunida tuyog'i nosoz ko'prikda tiqilib qolgan qo'yning haqqi ham hukmdordan so'raladi. Shuning uchun ham odil hukmdor o'zi yeydigan luqmada ham xalqining turmushini ko'rishi kerak.

To'g'ri, hukmdorlar va ayonlar har doim podshohlardak yashashgan, lekin undagi munosib sharoit va nozu ne'matlarning shukrini oddiy fuqaroning nozu ne'matlarga bo'lgan imkoniga

qaraganda qanchalik yuksak bo'lsa, shunchalik ko'p va yuksak darajada amalga oshirishi lozim. Demak, odil hukmdorning navbatdagi oliyhimmat orzusi va maqsadi o'z dasturxonini singari to'kis dasturxonni o'z xalqining har bir oddiy fuqarosi dasturxonida ko'rishdan iboratdir. "Xabarda keltirilishicha, "Alloh taolo xalqiga non berish umrni, mulk va davlatni ko'paytiradi"[6:127].

Albatta, hukmdorning shu yo'ldagi sa'yi harakatiga yarasha xalqi tadbirkor, ish ko'zini biladigan, eng muhimi, mehnatkash va halol bo'lsa bo'lganidir. Xalqning mehnat qilish fikridan qaytargan hukmdor o'ziga choh qazyidi, agarki buni mansabdorlar qilsa, unda hukmdorga munosib maslahat qilishmagan yoki uning siyosatini inkor qilgan, deb tushunish lozim. Shubhasizki, sarishta, uddaburon hukmdor, o'z xalqiga donolik qilishdan ham ko'ra, uning obizirvagini, non-namagini yaxshilashni afzal biladi, shuning o'zi yuksak donishmandlikka tengdir.

N. Makiavelli siyosiy ta'limotida hukmdor va uning fazilatlari yoki lozim bo'lgan xislatlari, siyosat, davlat ishlari, qo'shin tutish tartibi, mulozimlar bilan munosabat va eng muhimi, hukmdorning odamlarga munosabati bo'yicha, umuman sof axloqiy nuqtai nazardan emas, balki, siyosiy jihatdan oqlangan axloqqa tayanadi – bu esa har doim ham axloqning o'zi emas.

Sababi siyosiy axloq aslo axloqning o'zi emas, uning siyosiylashgan shaklidir, xolos. Shu o'rinda tag'inam bir misol keltirsak joizdir. Kaykovus "Qobusnoma"da Saljuqiylar asoschisi To'g'rilning o'ziga vazir tanlash tadorikini tasvirlaydi. Podshoh bir donishmandni o'ziga vazir mansabiga qo'yimoqchi bo'ladi, donishmandning uzun soqolidan va nihoyatda kamtarlikdan boshqa ishi bo'lmaydi. Podshohni huzuriga uni keltirishganda "Bandaning ersa soqolidin o'zga xususiyati va hunari yo'qdir"[5:192], deydi. Bu holatda donishmand kishi saroyda ta'jjub yoki kulgu bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin o'zini mas'uliyat tarozusida o'lchagani aniqdir. Yana bir shunday misol: Abu Hanifa Kufiyini ham Kufa shahri qoziligiga ko'p taklif qilishadi, lekin u janob har gal rad javobini beradi. Xo'sh, nimaga? Chunki gap birinchi misoldagi uzun soqolda emas yoki ikkinchi misoldagi taqvodor zot, mo'minlarning ulug'i, uning mislsiz ilmi, husni odobi haqida ham emasdir. Gap siyosatning o'zidadir, siyosat haqidadir. Bu o'rinda siyosatni ko'rsatma axloq tushunchasi bilan izohlash mumkin, chunki uning asli shumi yoki yo'qligini hech kim bilmaydi. Zamonaviy siyosat ilmida siyosiy etika yoki uning shakli bo'lgan diplomatik etika tushunchalari bilan ushbu masala sharhlanishi ham mumkin. Chunki tavoze' va muloyim so'z siyosatning xos kalitidir, lekin sandiqning ichi emasdir. Xullas, axloq aslo siyosiylashmasligi va siyosat axloqni o'zgartirmasligi kerak, chunki axloq o'zgartirilsa, u mohiyatini yo'qotadi va u axloq hisoblanmaydi. Demakki, siyosiy yoki siyosiylashgan axloq aslo axloq emasdir.

Shuningdek, qissadan yana bir hissa olishimiz kerakki, axloqni bir mo'ysafid oppoq bobo, deb olsak, uning tirikchiligi, ro'zg'or oshiyonligi, suv va non-namagi kabilar uning ijtimoiy

turmushi va xulqiga oid bo'lib, uni shu holatida siyosiy lashtirishga hech bir imkon va ma'no yo'qdir – mo'ysafid o'z holida mo'ysafiddir, siyosiy holatda u mavjud emasdir. Jumla avliyolar shu mo'ysafid bobo yanglig'dirlar, ularning siyosatga sira muhtojligi va ishi yo'qdir, ularning qiladigan ishi xulqning o'zidir, xolos. Axloq hurlikda muazzam va qoim bo'lur.

Demak, axloq siyosiy lashtirilsa, u endi, axloq bo'lmaydi, siyosiy axloq bo'ladi – o'zining ilk asosini – asl mohiyatini – toza javharlikni unutadi, yo'qotadi. Shu sababli ham jumla Buxoro shayboniylari, ashtarxoniylari, mang'itlar sulolalari hukmdorlari hazrat Bahouddin Naqshband poylari tarafdan o'zlariga qabrlar qurdirishgan – podshohlar avliyoning oyoq uchi tarafida so'nggi qo'nim topgan. Nimaga? Chunki avliyo axloqning o'zi edi, jumla xulqqa burkandi, hukmdorlar unga ergashdi, itoat qildi, raiyat esa hanuz ziyorat orzusidadur – hukmdorlar avliyo g'oyalarini o'z turmushlari, oilalari, sulolalari, siyosatlarida ustuvor va toju sar bilishdi, lekin aslo siyosiy lashtirmadilar. Xatar siyosatdandir, avliyodan emasdir, axloqdan emasdir. Chunki siyosat axloqni o'zlashtirmoqchi bo'ladi, axloq esa qo'riq yer emaski, qadimdagi kabi bosib olganniki yoki qo'sh haydab ochganniki bo'lib ketaversa; u qozoniladi, xuddi, mehr singaridir. Axloq tarbiya, ilm vositasida sayqal ham topadi va aksincha.

Shu sababli ham ayrim kishilarda, ko'p hollarda, jahon siyosati va milliy siyosatda, uning har qaysi shakli, siyosiy faoliyat va uni amalda ta'minlaydigan kuch ishlar tuzilmalarning ish faoliyatida, ishxonasida yoki ibodatxonalarga borib, namoz o'qimasligi, cho'qinmasligi yoki boshqa xil diniy ibodatlarni umuman bajarmasliklarini ko'rib, bularning barchasi dinga qarshi qaratilgandek fikr uyg'otadi, ta'surot qoldiradi – bu siyosatning dunyoviylik tabiatidan emas, balki, ko'proq, sof axloqqa tayanmasligidan kelib chiqadi. Takror ba takror aytamizki, din, faqatgina u, barcha axloqning volidasidir. Shu sababli ham hukmdor dinni va axloqni jamiyatda buzib, noto'g'ri talqin qilishlariga aslo yo'l qo'yimasligi kerakdir. Buning uchun to Qiyomat buzilmas asos Qur'onu karim va sahih hadislar mavjuddir. Bittagina Imom Buxoriy hadisi ming-minglab Makiavelli va shu kabilar maslahatidan ulug'dir va ulug' ajdodlarimizning ta'limoti o'zgarmas ma'naviy xazinaning o'zidir – Imom Buxoriydan qancha olsayiz, yutasiz, N.Makiavellidan olgan sayin, yutqazasiz – hech bo'lmasa, insonni yo'qotasiz. Axir, inson bo'lmasa, bu ko'hna jahonning o'zi bo'lmasdi. Bu jahonda haqiqiy inson bo'lib, ham insonni, ham jahonni saqlab qolish, asrab qolish, har ikki jahonda ham yuz yorug'lik asosi Imom Buxoriydek bobomizning merosida mujassamdir. Xalqi musulmon bo'lgan hukmdorlarning ish stoli ustida "Al-Jomi' as-sahih" bo'lishi shartdur, goh-goh o'qilsa-da, poklik va iymon hamisha birga qanot bag'ishlaydi, ish unumli bo'ladi, niyatlarga yetkazadi, aqlni va amalni yerdan uzdirmaydi. Solih kishilarning niyatlari o'zlari kabi ajoyib va mehribondur. Hadis dilni yumshatadi. Shubhasiz,

hukmdorning mehribonligi Olloh taoloning marhamatidir, xalqning tole'i kulganidir. Bu musulmon xalq esa taqdirga ishonadi, Imom Buxoriyning xuddi o'zi kabi – N.Makiavelli esa ishonmaydi. Shu sababli ham Sobiq Ittifoqning eng dongdor dohiylari faqat dinni ta'qib qilmadi, xalqining e'tiqodiga qo'shib, o'zini ham xohlagancha qatl qildi, surgun qildi, ziyolisini yo'q qildi, vatanni sevish iymondan ekanligini unuttirdi. Johil hukmdorlar iymon va e'tiqodni qoraytirdi, taqdirga ishonishmadi. Ish stolida trubkasi va "Gosudar"dan boshqa narsa bo'lmagani uchun ham sirtloni har kuni otuvga yoki surgunga hukm etiladiganlar ro'yxatini kiritgandi. Bu Sobiq Ittifoqning barcha xalqlari boshidan o'tkazgan mudshih tarixdir – xalqlar o'z sherxonlaridan, "norim-o, begim-o", degan oriyatidan judo qilindi. Bu insoniyat tarixidagi eng katta mustabidlikdir – chunki axloqning o'zi yo'q qilindi, faqatgina formal siyosiy axloq va shunga munosib turish-turmush xulqi shakllantirildi, ulug' valiy zotlar, ulug' olimlar maqbaralari xarobazorlarga aylantirildi. Xalq o'z e'tiqodini qalbiga ko'mib yashadi. Namoz unuttirildi. Xalq qo'liga o'roq va bolg'a, bolalar qo'liga havodan shishirilgan qizil pufak va bayroqchalar berildi. Hamma "Yashasin!", dedi, lekin o'zining yashashini hech kim o'ylamadi, ommaviy ong va dogmatik qoidalar hukmronlik qildi. Qancha-qancha yutuqlar haqida so'zlandi. Xalq paxta dalasida yoki zavodda qora moyga botib ishladi, yashadi. Azaldan o'ta madaniyatli, yuksak ma'naviyatli xalq omi va savodsizga chiqarildi. Ilgari uyining ichida yuksak axloq va madaniyat bilan tashnov qurib g'usl qilgan erkaklar va ayollar ommaviy hammomlarda milliy uyatini ham yuvib yubordi. Ilgari din xalq tafakkuri va turmushiga singigan edi, sobiq Ittifoq mafkurasining o'zi xalq e'tiqodiga aylantirildi. Mafkura dinni inkor qilib, to'la-to'kis uning g'oyalarini o'zlashtirib oldi. Hattoki, ilk vahiyini ham barcha maktablar devorlariga katta-katta harflar bilan dohiyning so'zlari qilib bitib qo'yildi. N.Makiavelli shularning barchasini oqlagan edi, yanayam qattiqroq siyosat yuritishni tavsiya qilgan edi. E'tiqodni zulm bilan yo'q qilib yoki paydo qilib bo'lmaydi – bu sof iymoniy hodisadir, sof axloqqa oid ruhoniy ehtiyojdir. Shu sababli ham teologiyani ideologiya bilan almashtirib bo'lmaydi, buning iskanjasini o'zbek xalqi xo'b ko'rib bo'ldi. To'g'ri, mafkurasiz jamiyat bo'lmaydi, lekin mafkura so'zini ishlatmasdan ham uni jahon bo'ylab barqaror etayotganlar bor, masalan, liberalizm mafkurasini. Ammo ayni paytda unutmaslik kerakki, konservativ jamiyatlarda liberal g'oyalarga yo'l berish uning halokatidir, yoki tanazzuli sababidir. Dunyoviy davlatda din – bu muqaddas, lekin davlat dinni ta'qib qilmaydi, degani hamdir. Chunki siyosat tizgini dinning emas, davlatning qo'lidadir. Sharoit yaratish, barcha sohalar bo'yicha, xalqqa bekamu ko'st munosib sharoitlar hozirlash va shu sohada musobaqalashish – mana davlat idoralari bugungi xalq xizmatchisi sifatida vazifalaridir, deb hisoblaymiz. Albatta, bunda N. Makiavelli kabi siyosatning mumtoz vakillari asarlari o'rganilishi nazariy jihatdan yaxshidir, lekin

amaliy jihatdan ish ko‘lami va o‘lchovini, me‘yor va had-hududini u bilan aslo olib bo‘lmaydi – bu bizning ma‘naviyatimizga ziddir. Bizga, xalq e‘tiqodi va ilmini asoslab ketgan javhar asoslar yetarlikdir, biz ularni yuqorida ta’kidladik.

“Jahon falsafasi qomusi”da N.Makiavelli falsafasi haqida quyidagicha xulosa keltirilgan: “Uning teologik qarashlarga zid holda davlat masalasiga dunyoviy nuqtai nazardan yondashgan; ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tarixiy ma’lumotlarga, real faktlarga asoslanib tushuntirishga harakat qilgan. Makiavelli respublikani davlatchilikning eng ma’qul shakli deb hisoblagan”[7:699].

N. Makiavelli “Hukmdor” asari yaratilgandan beri, davlatlar ko‘proq siyosatni davlatga oid deb, cherkov yoki masjidga oid emas, deb tushunishgan. Olimlarga va siyosatdonlarga ayonki, davlatning funksional vazifasi hargiz siyosat yuritishdir. Dinning funksional vazifasi esa xalqqa muqaddas din arkonlarini o‘rgatishdir. Bu juda ham to‘g‘ridir, sababi cherkov va masjidning ishi siyosat emas, xolis ibodatdir, Haqning To‘g‘ri yo‘lini raiyatga ko‘rsatishdan iboratdir, xolos. Sababi siyosat yuritishda va tartib o‘rnatishda davlatdan o‘zga kuchliroq tashkilotni insoniyat o‘ylab topgan emas va buni hech kim shubha ostiga qo‘ygani yo‘q.

Lekin davlat, xuddi uning faoliyati – siyosat kabi, o‘zini dindan ajratishi, ta’limdan, ilm-fandan, hukumati, vazirliklari va boshqaruv idoralaridan, kuch ishlatar tuzilmalari va harbiy ishdan, diplomatik va konsullik xizmatidan ajratishi qanchalik to‘g‘ri, degan savol hozirgi kungacha ochiq qolgan. Bu masalada chuqur o‘ylash kerakdir. Sababi kasallik ildiz otib ketaversa-yu, uni dori-darmonsiz muolaja qilish yo‘li tanlansa, bemor og‘irlashadi. Yuqorida juda ham ko‘p masalalarning ildizigacha yetib borgan masalani aytyapmiz. O‘ylaymizki, olimlarning aql nuri va ilmiy salohiyati bu masalaga yechim ko‘rsatishi zarur. Biz, jonajon vatanimizning sog‘lom inson yanglig‘ o‘z kamolot va yuksalish darajalariga tezroq yetishiga orzumandmandmiz, shu jihatdan, avvalo, axloqning o‘zini davlat va jamiyat ichra keng tushunishni tavsiya etyapmiz. Bunda axloq kirib bormagan idora, tashkilot, oila yoki tadbirkorlik tanazzulga mahkumdir, deyapmiz.

Shubhasiz, davlat siyosati va siyosiy tizimida ularning, har birining o‘z funksional vazifalari mavjud. Shu bilan birga, meritokratik funksiyalarni ko‘proq joriy etish, yuksak intellektni qadrlash zamonaviy davlatning axloqini, ta’bir joiz bo‘lsa, davlat dinini tashkil etishi kerakdir. Sababi bu axloqiy prinsip bo‘lib, munosiblilarni tanlash va rahbarlikka qo‘yish, shijoatkor va vatanparvar rahbarlar korpusini mustahkamlashga munosib hissa bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, rahbarning e‘tiqodidadir, har bir rahbarning e‘tiqodidadir, deylik, bir kishini bo‘lsin og‘irini yengil qildimi, muammosi bor xalq vakiliga yechim topib berdimi – qog‘ozlarga va rasmiyatchilikka o‘ramasdan

ijtimoiy adolatni va qonun oldida hamma fuqaroning tengligini ta'minladimi, kabi dolzarb savollarga javob topishidadir. Bularning barchasi umumaxloqqa borib taqaladi. Davlat sof axloqqa tayansa, xalq ijtimoiy adolatni o'z ko'zlari bilan ko'radi: "haqiqat bor", deydi. Oddiy kishi haqiqatining ildizi esa o'sha axloqdadir.

Axloq har doim ham diniy (islomiy) bo'lavermasligi mumkin, xuddi ayrim an'analar (Navro'z bayramini nishonlash), urf-odatlar (to'ylarda kelinni olov atrofida ko'tarib aylantirish) singari, lekin u hech qachon siyosiy bo'lmasligi kerak. Lekin dindan tashqari chiqqan axloq mohiyatan axloq emasdir. Unda sharti nimadir? Makka shahrida jumla arabu ajam shayxlari tomonidan avliyolar podshohi deb oq kigizga o'tqazib ko'tarilgan Bahouddin Naqshband bobomizning ajoyib to'rtligi bor:

“Ichda bo'l oshno doimo,  
tashda tut begonadek,  
Bu kabi zeboravish  
kam topilur jahonda ham”.

Ma'nosi ulki, sen, insonning ichingdagi yuraging Haqning nazargohi bo'lsin – pok bo'lsin va sen har doim Uni yod et, zikr et, do'sti bo'l, (agarki, kimsa Haqning do'sti bo'lsa, qilgan tavbai nusuhi qabul bo'lganini o'zi sezadi) lekin sening taqvodor ekanligingni hech kim bilmasin – o'zingni begonadek tut. Bu kabi dunyoda sarishta yurish hech uchramaydi – tanho bo'lasan. Shunday qilib, mulsulmonki, davlat ishida ishlaydimi, ishlasin, lekin e'tiqodsiz va iymonsiz bo'lmasin, ayniqsa, mansabdorlik va amaldorlik nasib etgan kimsa bo'lsa – sen, o'z e'tiqodingni birovlariga ko'rsatish uchun emas (kimki shunday qilsa, bu riyodir va qilgan barcha amallari besamardir), o'z iymoningni asrab qolishing va To'g'ri yo'ldan og'masliging kerak, deganidir. Ko'pincha rahbarlarni formal axloq “libosi”da ko'ramiz. Aslida esa rahbar aslan axloqli, iymonli va e'tiqodi hammadan ham kuchlirog'i bo'lishi kerak. Shunda u ish sifatini, xalq oldidagi mas'uliyatni va hukmdori oldidagi yuzi yorug'likni his qiladi. Bo'lmasa, birisi kelib, boshqasi ketadigan “vaqtinchalik boshpana” bo'ladi, xolos. Bunday rahbarlik korpusi tunu kun ishlasa ham samarasiz ishlaydi, chunki u ish ko'rsatma axloqqa qurilgan. Fidoyilik va haqiqiy vatanparvarlik sof axloqdan yuzaga chiqadi. Mana, nima uchun bizga e'tiqod kerak ekan, xalqona ibora bilan aytsak, rahbarlarning musulmoni kerakdur.

Chaqaloqqa, yoshgina bolalarga siyosat qilinmaydi – nega – chunki ular beg'ubordir, farishta yanglig'dirlar, ularga ota-ona, bobo-buvi sifatida mehr ko'rsatishdan va parvarishdan o'zga shodlik topmasmizki, xuddi shuningdek, axloqning javhari, mohiyati inson chaqalog'i yanglig' beg'ubordir, undan har ikki jahon saodatining hiydi kelurki, shu “chaqaloqlik holati”da

butun boshli millatni tarbiyat qilur. Bu axloqning naqadar beg'ubor, ulug'vor va oliyjanob g'oyalar majmui ekanligini ko'rsatadi va ta'limda axloq xuddi shu kabi hayotiy tarzda joriy etilishi ham, kerak ishdir.

Shu bilan birga, davlat dunyoviy bo'lishi mumkin, ammo davlat rahbaridan tortib, unga itoat etuvchi mansabdorlar, barcha xizmatchi va xodimlar, kasbu koridan qat'iy nazar, jamiyki xalq, qaysidir dinga e'tiqod qilishi mumkinmi?! . Zero, xalqni e'tiqoddan, dindan ayirgan davlat, tanazzulga mahkumdir. Tarixda bunga isbot-dalil haddan ziyod ko'pdir. Bundan tashqari, dunyoviylik dinsizlikdir, degan tamoyil yo'q – dinsizlik dahriylikdir, axloqdan tashqari holatdir, baxtsizlik, hadsiz qayg'u va ulug' musibatdir.

To'g'ri, har qaysi yuksak siyosiy maqomga yetgan kishi, borgan sari donishmand bo'lib boraveradi, ayniqsa, hukmdorlar, lekin uning bu so'zlarining qanchalik axloqqa va unga asoslanuvchi shariatga mos ekanligini, albatta, o'ylab ko'rishi kerak. Hukmdor siyosiy tajribasidan kelib chiqib, yoki o'zidan oldingilar tajribasidan kelib chiqib, amaliy siyosat yurtishi va qaror qabul qilishi mumkin. Lekin o'zidan oldingi chiqarilgan va o'zi shakllangan siyosat yo'rig'i axloqqa va umuman shariatga zid bo'lgan bo'lsa – chi? Unda nima qilish kerak ?

Yoki hukmdorlar nega jild-jild ularning nomlaridan yozilgan kitoblarni meros qoldirishadi-yu, siyosatning o'zi, u amal qilgan qonuniyatlarni hech yerda yozishmaydi? Chunki bu davlat siri yoki davlat ishi, deb ham oqlanishi mumkindir. Ammo kelajak avlod bu yo'l-yo'rig'lardan yuzlab xatolar topishlari mumkin – qachonlardir davlat siyosatida eng to'g'ri va adolatli deyilgan hukm va qarorlar, vaqt o'tishi bilan unday emasligi, aksincha, davlat taraqqiyoti, jamiyat yuksalishi va inson kamoloti va farovonligiga katta to'siq bo'lganligi oshkor bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham oqil hukmdor uchun davlat siyosati mezonlarini belgilashda, davlat asoslarini qayta mushohada qilishda faqat va faqat axloqqa va faqatgina undan kelib chiquvchi siyosiy donishmandlikka tayanishi kerakki, shunda o'zi mansub bo'lgan va o'zidan keyingi avlodlar ham uni zolim, mustabid, qonxo'r kabi salbiy nomlar bilan eslamasliklariga, hattoki, xalqi qarg'amasligiga asos yaratadi.

Maddohlar va besabab tanqidchilar sababli hukmdorlar o'z tanlagan taraqqiyot yo'llarida ko'p chalinishadi. Aqlli hukmdor shunday yo'l tutsinki, hattoki, maddohning ham madhi amaliy ishga ulangan bo'lsin, quruq so'zdan iborat bo'lmasin – madh etuvchi kishining o'zi ham bitta bo'lsin, Vatan yo'lida, ko'chat eksin, yerga urug' qadasin va shiati islomga amal qilsin. Shunda yo'ldan ozdiruvchilarning munofiqligi, riyosi ularning o'zini fosh qiladi va bu ishlar xatarli ekanligini anglab, qayta bu ko'chaga qadam qo'yishmaydi. Faqatgina tullak tulkilar siyosiy hokimiyatdan foydalanib, o'ljalik bo'lib olishadi.

Shuningdek, asossiz ravishda hukmdorni tanqid qilganlar, nomiga dog‘ tushurganlarga qonun kuchini ko‘rsatib qo‘ysinki, bunday davlat qonun ustuvor va inson sha‘ni aziz ekanligini his etishsin. Bu oddiy xalq hukmdori siymosida o‘zini ko‘radi – uning nomi aziz bo‘lsa, o‘zi ham hurmatga loyiq ko‘riladi.

Hukmdor ham inson, inson bo‘lganda ham hukmi va qarorlari muhokama qilinmaydigan va sudga tortib bo‘lmaydigan vatandoshdir, lekin u o‘ziga otilgan toshga qanday munosabat bildirsa, oddiy bir miskin, beva-bechora, nochor va boy fuqarosiga ham xuddi shunday tosh otilganda, o‘ziga otilgandek his qilsa va qat‘iyan qonun kuchini ko‘rsatsa, shunda adolatli hukmdor bo‘ladi. Shu sababli ham hukmdor sherxon tabiatlik bo‘lsin, aqli davlatning o‘zi bo‘lsin, ravshan ko‘zlari atrofida tulkilar, gala-gala it, chiyabo‘rilar kabilarga yo‘l berishmasin va bunday xislatlilar toifasini davlat ishlariga yo‘latmasin. Davlat axloqi hamma bilgan axloqqa oid bo‘lsin, ishlar esa tabiiy va sof aqlga qurilsin. Hukmdor qo‘li ostidagi kuch ishlar tuzilmalar, aqlni ozdiruvchi va insonni o‘zligidan mahrum qilguvchi usullardan foydalanmasin, qonun kuchini avvalo ularga ko‘rsatsin.

Endi, xalqni qonunga itoat ruhida tarbiyalash ishiga adolat ruhida yondoshsinki, tenglik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni o‘zida ifoda etadigan mezonlar mezoni bo‘lmish axloqning o‘zi bo‘lsin. Toki, ta‘sirchan davlat tamoyilini ishga solmas ekan, hukmdor tiyish va tiyilib turish usullaridan samarali foydalana olmaydi: adolatsizlikka, poraxo‘rlikka, axloqsizlikka ham davlat idoralarida, hamki jamiyat ichida ta‘sirchanlik hissi shakllansin.

Sherxonning sifati, albatta bo‘lsin, lekin tulkilik qilguvchi ayrim toifalar singari bunday ayyor, g‘urbat, fisqu fasod sifatlar bo‘lmasin, hukmdor asl inson, haqiqiy inson bo‘lsa, bo‘ldi – shuni o‘zi yetarlidir. Hukmdor oliy xulqli shaxsdir, uning amali shunga mos kelishi kerak. Fuqarosi yerda o‘tirganda, o‘zi o‘sha yerda bo‘lgan hukmdor, aslo fuqarosidan balandda o‘tirmasin, hukmdor bergan sovg‘a-salomlar uchun uni ko‘klarga ko‘tarib, oyoq-qo‘lini o‘pishmasin. Aytyapmizku, axloqdan sira chiqishmasin va hukmdor shuni o‘zidan ham, atrofidagi ayonlaridan ham qat‘iy talab qilsin.

Agarki, davlat asosi axloqqa tayanmasa, siyosatning o‘ziga suyangan bo‘lsa, unda rasmiy axloq davlat ishlarini boshqaradi, bu esa aslo axloq emas, madaniyat ham emasdir. Ulug‘ ajdodlardan meros qolgan, ibrat-namunaga va sunnani nabaviyga asoslangan axloq oddiy musulmon axloqi bo‘lib, shuning o‘zigina, biz aytayotgan axloqdir – oddiy, ishonchli, samimiy, mehribon, iymonli, zakiy va tadbirkor kishi qiyofasini beradi. Hukmdor dindor bo‘lishi kerak emas, lekin taqvodor bo‘lishi shartdir. Sababi uning adolati, ibodatidan afzaldir. Yanayam aniqrog‘i, uning ibodati faqat o‘ziga savoblar keltirsa, adolati butun xalqqa tatiydi va bundan ortiq

savob ham, ibodat ham yo‘q. Ayrim musulmon xalqlar hukmdorlari jome’ masjidlarga borib, juma namozini o‘zi imomlik qilib o‘tkazadi – bu ish davlat rahbari, hukumati, maslahatchilari ham juma kuni ibodat qiladi, deganidir. Shu bilan birga e’tiqod hukmdor va xalqni bir butunga aylantirib yuboradi. Bunday hukmdorning so‘zi axloqdan boshqa narsa emas va xalqiga ibrat-namunadir va so‘zi va o‘zi aksariyat xalqning ko‘nglidan joy oladi. Xalqqa imomlik qilish g‘oyasi ulug‘ bobokalonimiz Abu Nasr Farobiyga ta’luqli bo‘lsa-da, bu fikr ostida xalqini saodatli qilish niyati va maqsadi yotadi. Saodatli xalqlargina farovonlik va barqarorlik ruhiyatida yuksaladilar. Bu esa oddiy insoniy axloqning benazir namunalaridir.

Kimdagi, oddiy insoniy axloq yo‘q, unda aslo axloqning o‘zi yo‘qdir. Kimki, axloqdan tashqaridadir, dindan tashqaridadir. Dinsizlik ulug‘ fitnadir, aslo bunga yo‘l qo‘ymaslik kerak – chunki Qur’onni xalq ko‘zi o‘ngida yoqqan kimsa, u boshqa din vakili bo‘lsa hamki, axloqsizdir, dinsizdir, murtaddir. Shariati islomda murtadlikning hukmi o‘limdir. Chunki insoniyat uzra hech bir musulmon Injilni xalq ko‘zi oldida ham, pinhona tarzda ham yoqqan emas – agarki, kimdir shunday qilsa, demak, u aslo musulmon emasdir. Chunki iymon shartlaridan biri Ollohning barcha kitoblariga iymon keltirishdir. Dindan tashqari kimsa, axloqdan tashqaridadir, ulug‘ gunohdir va fitnalar uyasidir.

Musulmon musulmonga musulmonchilik qilur, hattoki, boshqa din vakillariga ham bag‘rikenglik qilur. Har kimki e’tiqodida sobitdir, albatta, u bag‘rikengdir – xoh u musulmon bo‘lsin, xoh u provaslav bo‘lsin, xoh u protestant yoki katolik bo‘lsin, farqi yo‘qdir. Chunki bag‘rikenglik qilish g‘oyasi e’tiqod va taqvoning yuksak namunasi, insoniylik belgisi hamdir.

Aqli bor kishi dinsizlikdan o‘zini qutqarsin, yolg‘iz Haqqa tavba qilsin, xoh u siyosatchi bo‘lsin, xoh u oddiy fuqaro. Najot iymondandir, ilmdandir, axloqdandir, yolg‘iz Ollohdandir, o‘zgasidan emas. Demak, axloq tavba, iymon, ilm orqali hayotiy lashadi va inson qalbida ilohiylashadi va buning tasavvufda ko‘plab aqlga oid bosqichlari ham mavjud. Axloq alqni yuzaga keltiradi, aql nurini shakllantiradi. Ilm tarbiyalaydi, ibrat beradi, g‘oya, fikrga undaydi, faoliyatni belgilaydi, tasavvur va dunyoqarashni shakllantiradi, shu sababli ham axloq keng hayotiy va falsafiy tushunchadir, umrguzaronlikning yagona asosidir.

Faqatgina I. Kant ulug‘ faylasufki, axloqqa tayanuvchi va unga itoat etuvchi siyosatchi yoki umuman axloqqa oid o‘zini shunday (ya’ni axloqli qilib) ko‘rsatish maqsadidagi siyosatchi-axloqchi toifalarini ajratgan edi. N. Makiavelli va keyinchalik makiavelizm oqimining “maqsad vositani oqlaydi” degan tamoyili orqali har qanday holatda ham kuch ishlatishni oqlashi “Uyg‘onish davri” faylasuflarining tinchlik qonuniyatlariga mutlaqo ziddir.

Ishonch bilan aytish mumkinki, toki hozirgi kunga qadar faqatgina “Uyg‘onish davri” faylasuflarining “Tinchlik loyihalari” deb atalgan asarlariga sof falsafiy va ham olimlarga, ham hukmdorga o‘qishga arziydigan asarlardir, deyishimiz mumkin. Chunki faqat ular siyosatdan xoli bo‘lgan va sof axloqiy tafakkur asosidagina shakllangan tinchlik qonuniyatlarini ishlab chiqdilar va taqdim etdilar.

Tinchlikni axloq asosida tadqiq va talqin qilish, tushuntirish aynan “Uyg‘onish davri” faylasuflarining “Tinchlik loyihalari”ga bag‘ishlangan asarlarida keng talqin qilindi[8:132] – ularning barchasi uchun mezon axloqdir, hattoki, dindan kelib chiquvchi telogik axloq bo‘lsa hamki, lekin aslo kuch ishlatish yoki despotik hukmronlik emas. N. Makiavelli shu jihatdan ham faylasuf emas, lekin klassik siyosat ilmida “pishgan” donishmanddir.

Shu bilan birga, N. Makiavelli “Hukmdor” asarida hukmdorning o‘z qo‘li ostidagi zodagonlarni o‘ziga dushman qilmaslikka va xalqning ko‘nglini olishga chaqirgan: “Obod davlatlar, dono hukmdorlar zodagonlarni dushman qilmaslik va xalqning ko‘nglini olish uchun barcha choralarni ko‘rishgan, chunki bu hokimiyat tepasidagilar uchun eng muhim masaladir” [3:101]. Hukmdor “zodagonlar qirolni xalqqa yon bosishda, xalq esa zodagonlarga yon bosishga ayblamasligi uchun bu ishni qirolning zimmasiga yuklamay, qirolni aralashtirmagan holda kuchlilarni tiyib turadigan, zaiflarni himoya qiladigan sud mahkamasini tashkil qilgan edi” [3:101-102], deydi. Lekin davlat siyosatida Parlament instituti ham mavjudki, adolatli qonunlar orqali barcha ishlarni tartibga keltirish va qonun ustuvorligini qat‘iyan ta‘minlash shartki, bu yo‘l bilan hukmdorning o‘zi o‘zlarini himoya qilgan, kuchlilarni sergak torttirgan va o‘z tizginida ushlab turgan, zodagonlarning sadoqatini talab qilgan va vatan yo‘lida sidqidildan xizmat qildirgan bo‘lardiki, bu har qalay uch toifa – oddiy fuqaro, qudratli shaxslar yoki siyosiy qatlamga ta‘sir etuvchilar, hukmdorga bo‘ysinuvchi zodagonlarni ham vatanparvarlikka chaqirgan bo‘lardi – inson tabiiy ravishda vatanparvar bo‘lishi kerak, so‘zda, odamlar ko‘z o‘ngida emas, amalda tabiatan o‘z vatanining farzandi va vataniga sodiq bo‘lishi shartdir, bu esa tag‘inam axloqqa oid tushunchadir. Buning uchun qonunlar adolatli bo‘lishi kerak.

Adolatli qonunlar, shunday qonunlarki, ular ko‘p emasdir, hadeb qabul qilinaveradigani emasdir, ular oz bo‘ladi – hukmdor siyosat yuritishida ham, zodagonlar yoki davlat xizmatchilari ish yuritishida ham, xalq yoki oddiy fuqaro haq-huquqi ta‘minlanishida ham bir xillik va tenglik qonuniyatlarini o‘zida aks ettirishi zarurdir. Nizomulmulk yozadi: “Agar shoh saroyidan tez-tez farmon yozilib, yubortirib turilsa, unga hurmat ham shuncha kam bo‘ladi. Xulosa bundog‘kim, zarurat bo‘lmasa, oliy majlisdan hech nima yozilmaydi. Farmonning hurmati va kuch-quvvati shunday bo‘lishi kerakki, ijro etilmaguncha uni hech kim qo‘lidan qo‘yishi kerak emas”[6:77].

Qonun oldida hukmdor ham, mansabdor yoki davlat xizmatchisi ham, fuqaro ham tengdir, degan tamoyil amalda ta'minlashi zarur. Ko'p hollarda qonunlar yoki ayrim huquqiy hujjatlar mag'zi, aksar xalq uni tushunmasa-da, davlat xizmatchisi bo'lgan zodagonlar uchun xizmat qiladi, chunki ko'p hollarda qonun ijodkori davlat xizmatchisi bo'lgan zodagonlarning o'zidir – bu esa chiroyli qilib yozilgan yuzlab boshqa qonunlar yoki huquqiy qoidalardan ham yomonroqdirki, chiroyli va mazmunlisini, hech bo'lmasa, chet elliklarga “sizdaqa qonun bizdayam bor”, degan ma'noda ko'z-ko'z qilish mumkindir, bunisini esa o'zi ijro hokimiyati vakili bo'lgan hukumat vakillarining tashabbusi bilan qabul qilinadi va o'zining manfaatlarini umumxalq manfaatlari sifatida ko'rsatishga olib keladi, xalqning foydasiga deb ko'zlangan maqsad aslida umuman xalqona bo'lib chiqmaydi. Agarki, shu usul o'zini oqlaganida edi, allaqachon yuksak rivojlangan jamiyatlar soni yer yuzida to'lib toshgan bo'lardi.

Ijtimoiy hayotda va davlat boshqaruvida qonunlar “oq suyaklar” qonunidan iborat bo'lmasligi kerak – bu o'ta halokatlidir. Bizga shunisi ham bo'laveradi, deyish, bamisoli keng dengizda teshilgan kemaga ko'rsatkich barmog'ini tiqib, tutib turishday gapdir – undan na kema omon qoladi, va na undagi yo'lovchilar.

Shu sababli ham qonunlarni qonun chiqarishga mas'ul bo'lgan xalq vakilining o'zi qabul qilishi kerak, ijro etuvchi institut bo'lgan hukumat esa shu qonunni ijro etish bilan mashg'ul bo'lishi kerak, uning bundan boshqa ishi yo'qdir, qonun chiqarish ishlariga umuman aralashmasligi kerakdir. Buning uchun qonun qabul qiluvchilarning tug'ma iste'dodi – yetakchilik qobiliyati, siyosiy idroki, davlatga oid aqli, keng qirrali bilimi va munosib maqomi hukumat va uning a'zolaridan oz bo'lmasligi kerak, aksincha, parlament hukumatga andoza va yo'l-yo'riq beruvchi bo'lishi kerak.

Joiz bo'lsa, hukmdor qonunni bilmagan vazirni qonun chiqaruvchi lavozimida qayta tarbiyalashi kerak – bu esa sharaf deb qabul qilinishi kerak. Amaliy siyosatda esa buning aksini kuzatish mumkin, ya'ni deputat vazirlik yoki biror hukumat mansabdori maqomigacha ko'tarilsa, bu ish deputat uchun sharaf, deb hisoblanadi. Aslida esa bunday o'zgarishlar hukumat uchun sharaf, deb qabul qilinishi kerak edi.

Zamonaviy demokratik davlatlarda saylovlarda g'alaba qilgan partiya, deyilganda, qonunchilik palatasida ko'p o'rin olgan partiya tushuniladi, ularning orasidan hukumat a'zolari va partiya raisi esa hukumat rahbari bo'ladi, ya'ni bunda hukmdorning shon-sharaf yo'li to'g'ri belgilangan. Istaysizmi yo'qmi, hukmdorning sharafi bu mamlakat sharafidir. Shu sababli ham barcha davlat ishlari va xizmat pog'onalari shunga mos bo'lishi kerakki, bu yerda “davlat xizmatchisining maqomi to'g'risida”gi qonun va u qonunda adolat so'zi ishlatilmagan holda tabiiy

ravishda uning mohiyati aks etgan holda oddiy fuqaroga mansablarga tanlanishning odilona mezoni ishlab chiqilishi kerak. Bunda tug‘ma iste‘dod egalari, kambag‘al va yosh bo‘lsa hamki, hukumat va parlament ishlariga jalb etilishi kerakdir.

Bundan tashqari, siyosatdagi natijani oddiy fuqarodan emas, tizgin qo‘lida bo‘lgan shaxslardan so‘rash kerakdir. Buning uchun siyosatchida fikr, bo‘lgandayam, mustaqil fikr va jamiyatda ijtimoiy fikr shakllangan bo‘lishi kerak. Chunki oddiy fuqaro siyosatda ishtirok etmaydi, lekin o‘zaro aloqalarda passiv kontaktga kirishadi. Bu yerda oddiy fuqaro oiladagi bolalar kabidir, ular ota-onasining qaramog‘idadir, ularning qo‘liga qarab turishadi, xuddi umidlari ishlagan bir oylik mehnat haqqini kutgan tashkilot ishchi-xodimi singaridirlar. Shu sababli ham fuqaroni halol mehnatga va fuqaroning o‘zi uchun foydali bo‘lgan doimiy faoliyatga rag‘batlantirib turish kerak. Aqlli hukmdorlar uchun buning xalqona usullari bisyordir – bu kundalik turmushda xalq bajaradigan barcha oddiy ishlardir.

Garchi har doim ham hukmdorlarga yuqoridagi uch toifaning kuchli vatanparvarligi yoqmasa hamki, podshoh bo‘lsa-da, “boshqadan ko‘proq man vatanparvar bo‘lishim kerak”, degan tuyg‘uni shakllantiradi – faqat buni siyosiy xatolik, deb ayrim qo‘shni davlatlardagi kabi noto‘g‘ri tushunish yoki hukmdorning o‘zi zimdan boshqarib turadigan nizo, fitnani yuzaga keltirmasa, bo‘lganidir.

Shu o‘rinda bir eslatmani aytilish joizki, adolatli hukmdor, nafaqat, porani uzil-kesil ta‘qiqlaydi, unga mislsiz urush ochadi, balki, har qaysi zulmning ildizi, jamiyat va davlat kasalligining yoki ruhiy tushkunlik holatining asl sababchisi aynan poraxo‘rlik illatidir, deb tushunadi. Poraxo‘rlik avj olganda, davlat, yagona siyosiy organizm sifatida to‘laqonli faoliyat yurita olmaydi, jamiyatda hukumatga ishonchsizlik ortib boradi. Nizomulmulk “agar go‘sh t aynisa, uni tuzlab ilojini qilish mumkin, ammo tuz aynisa, uning iloji nimada?” [6:83], deydi. Bu bilan hukm va qaror chiqaruvchi shaxslar aynimasligi kerakligi nazarda tutilmoqdaki, “tuz” – bu hukm, qaror va u aynimasligi kerak – faqat axloqqa tayanishi kerakdir. Axloq, qonun, porani inkor etar ekan, uning “tuzi” ham mansabdorga, ham fuqaroga birdek ta‘sirli bo‘lishi kerak.

Endi, xalq ishonchsizligini hukumatga oshkora namoyish qiladimi, yoki yopiq holatda xalq tilida shunchaki gap-so‘z bo‘ladimi, qat‘iy nazar, bu ichki ehtimoliy latent ixtiloflarning uyasi bo‘ladi, hech bo‘lmasa, xalq qarg‘ishiga qoladi. Chunki pora bilan ishga kirgan davlat xizmatchisi, pora olishga imkon berilmasa, xalqqa zulm qiladi. Garchi ularning ko‘plari bu tushunchani fahm etmasa hamki, xalq esa “forma”dagi yoki mansabdagi, yoki har qaysi hukm chiqaruvchi shaxsdan adolat va najot kutadi... N.Makiavelli yozadi: “shuningdek, hukmdor shahar yoki davlatni obod qilish, bezatish haqida qayg‘urganlar uchun mukofotlar ham tayyorlab qo‘yishi lozim”[3:67].

Shu sababli ham adolat deganda, avvalo, butkul porasiz jamiyat tushuniladi va bunday holatda hukumat xalqning xizmatchisidir, aksincha emas va bo‘lishi ham mumkin emas.

Ko‘p hollarda xalq kutgan adolat tenglik tamoyiliga oid tushuncha hisoblanadi. Muso alayhissalom zamonidan qolgan “tishga tish, ko‘zga ko‘z” tamoyilini talab qiladi. Bu degani A nomli fuqaro B nomli fuqaroning bitta bo‘lsin, tishini sindirsa, B nomli fuqaro A nomli fuqaroning bitta bo‘lsin, tishini sindirishga haqlidir. Xuddi shuningdek, A nomli fuqaro B nomli fuqaroning bitta bo‘lsin, ko‘zini chiqarsa, B nomli fuqaro A nomli fuqaroning bitta bo‘lsin, ko‘zini chiqarishga haqlidir. Bu haqlar sud mahkamasi hukmida amalga oshiriladi. Islom shariatida esa bu ikki “tishga tish”, “ko‘zga ko‘z” tushunchalari yoniga “jonga jon” atamasi kelib qo‘shilgan. Bu yerda bitta tishning, bitta ko‘zning va bitta jonning haqqi yoki yangi tushuncha – narxini mazlum (zulm ko‘rgan) belgilaydi, albatta, sud ijrosi doirasida amalga oshiriladi. Adolat barcha uchun jazo va mukofotning aynan tengligidan iboratdir, boshqacha emasdir.

Har qanday yangilik har doim ham o‘zi bilan yaxshiliklar keltirmaydi. Xalqni buzishning yaxshi usuli – xalqqa mansub bo‘lmagan qadriyatlarni jamiyatga olib kirishdir. Eng muhimi, donishmand hukmdor o‘z xalqining qadriyatlarini poy-mol etilishiga yoki uning buzilishiga aslo yo‘l qo‘ymasligidir. Milliy o‘zliksiz hech bir millat davlat darajasiga yetmagan. Davlatga nomi berilgan millat va ular bilan bir jamiyatda yashayotgan boshqa millatlar o‘rtasidagi qaror topgan do‘stlik, bag‘rikenglik, hamdo‘stlik, hamkorlik g‘oyalari va hattoki, qarindoshlik rishtalarini mustahkmlashning yagona chorasi ham axloqdir. Chunki bu yerda oddiy insoniy axloq bag‘rikeng madaniyatni yuzaga keltiradi va barcha hayotiylik va hamkorlik boshlanmalarining asosi bo‘lib xizmat qiladi va barcha millatlar yagona oila kabi jamiyatda istiqomat qiladi, umr ko‘radi, avlodlar tarbiyalaydi. O‘zi bu qisqa umr davomida inson uchun go‘zal axloqdan boshqa qadriyat, boylik, meros mavjud emas hamdir.

Hukmdor esa shu xalqning otasidir. Otalarning vazifasi oila to‘kisligini ta‘minlash, bolalar ta‘limi va sog‘ligiga, taomi va obi-zirvagiga e‘tibor qilish, ularning munosib va yaxshi sharoitlarda ulg‘ayib, mustaqil yo‘llarini tanlashga ham moddiy, ham ma‘naviy beminnat xizmat qilishdir. “Axir, bu mening bolam-ku” deb xalqiga shunday mehribon va ochiq yuzli otalarcha murojaat qilishdir.

Shuningdek, mansabdorlar xalqning xizmatini qilishni Haqning xizmatini qilishdek o‘zlariga muqaddas ish, deb bilishlari kerak. Bir notavon va miskin oldida Ka‘ba oldida turgandek qaltirab, g‘amg‘usorlik qilishlari, uning mushkulini hal qilishlari kerakdir. Yurt otasi quyi mansabdorlarga, quyidagilari o‘zlaridan ham quyiroqdagilarga ma‘naviy va siyosiy ibrat bo‘lishlari kerakdir.

Mansabdorlarning eng yaxshisi oddiy fuqaroning oldiga boradiganidir, uning ko'ksidan itarmaydiganidir va u nihoyatda bilimli, orasta, sarishta, zukko, xalqqa yumshoq ko'ngilli, amalda xalq ishini hal qilib beradigan, so'z o'yini qilmaydigan, ishni paysalga solmaydigan, sansalorlik va kibrga aslo yo'l bermaydigan, o'ziga va qo'l ostidagilariga o'ta talabchan bo'lsin. Xalq ichiga kiradigan mansabdorning xalqqa va'z aytishi kerak emas (chunki hukmdorning o'zi xalqiga va'z qiladi, shu yetarlikdir), u bu va'zini o'zining uyida qilsin, lekin mansabdor o'ta yuksak bilimli, o'ta bosiq fe'llik va nozik didlik bo'lishi shartdir. Sababi xalq mansabdordan ma'naviy andoza ham ola bilishi kerak. Luqmoni Hakim aytadiki: "Odam uchun dunyoda bilimdan yaxshiroq yor yo'q va bilim xazinadan ham yaxshiroqdir. Chunki sen xazinani ehtiyot qilishing kerak. Bilim esa seni qutqaradi va muhofaza qiladi"[6:67].

Mansabdorlarning maktabi Yurtboshining o'zidir. Yurtboshi mansabdorlarni xalqning qanchalik xizmatchisi bo'lganiga qarab, ularga chora-jazo yoki mukofot qo'llashi kerak. Hukmdor o'z xizmatchilarini mukofotlashni ham bilishi kerakki, ular bir umrlik minnatdorlik ruhida va samimiy holda sidqidildan ish qilishlari kerak. N.Makiavelli yozadi: "Ayni paytda, hukmdor ham o'z navbatida vazirining sadoqatini qo'llab-quvvatlashi, uni xizmatiga yarasha mukofotlashi, uni boy qilishi, o'ziga minnatdorlik rishtalari bilan bog'lashi, mas'uliyat va sharafni u bilan baham ko'rishi lozim, toki o'zining hukmdorga nihoyatda kerakligini his qilsin, mol-dunyo va martabalariga ega bo'lib, yangi boyluk va izzat-hurmatni istab qolmasin, turli lavozimlarni egallab, davlat to'ntarishidan qo'rqsin"[3:122-123].

Hukmdor, avvalo, xalqning otasidir va oilada bo'lgani kabi, barchani axloq bo'yicha tartibga chaqirishi va o'zining o'g'itlari bilan oila a'zolarini tarbiyalashi kerak. Sababi oiladi, sulolada, jamiyatda axloqli bola ulg'aysa, xalqqa xizmat qiladi, uni talon-taroj qilmaydi, birovning haqqidan hazar qiladi. Chunki Otaning o'g'itlari uning ikki qulog'ida yangrab turadi va odamlar o'z hayotlarida ko'p bora, xususan, farzand tarbiyasida va boshqa amaliy-hayotiy ishlarda "otam unday qilgandilar", yoki "bu vaziyatda otam bunday degan edilar", deb ko'p eslashadi. Ota o'g'iti farzandning axloq kodeksidir, agarki, u ota haqiqiy mo'min bo'lsa. Musulmon ota hech vaqt bolasini och qoldirmaydi va bolasini yakka o'zini taqdir izmiga tashlab qo'ymaydi. U otami, chorasini topadi va bolasiga bergan bir parcha nonini minnat qilmaydi. Minnatga qurilgan barcha ishlar fasodga uchraydi, baxtdan uzoqlashtiradi, natijasiz bo'ladi.

Shu o'rinda davlatga sadoqat bilan halol xizmat qilgan mulozim, shoir, yozuvchi, elchi, hokim kabi mansabdorlarning ayrim farzandlarini ham xuddi shunday tarbiyat topgan, mansabdor bo'lgan otasi yoki onasining yo'rig'ini olganlarni mansabga ko'tarish foydalidirki, bu davlat

boshqaruvida “halol sulola” degan siyosiy qadriyatni qaror toptirishga olib keladi. Va faqat sulolaning halolligiga e’tibor qaratish kerak. Bu toifada ustoz uning sulolasidir.

Yetakchilik qobiliyatiga ega bo’lgan tug‘ma iste’dodlarni esa siyosiy tarbiya va ma’lum idrokiga qarab esa xohlagancha mansabga ko’tarsa bo’ladiki, bu toifa o’ziga yo’l ochuvchilar bo’lib, ular o’zlari uchun siyosatda dong taratgan otasi yoki onasining o’gitlaridan emas, ulug‘ ajdodlari va tirik ustozidan namuna olishadi va vatanining munosib farzandi bo’lishadi. Siyosatda ustoz kerakdir, faqat u xolis va beminnat bo’lishi kerakdir.

Davlat miqyosida hukmdorning o’zi barcha davlat xizmatchisining ustozidir. Chunki ularni bog‘lovchi rishta mansab emas, axloqning o’zidir – yoki shunday qonuniyat bo’lishi kerakdir.

Jamiyatda ko‘p hollarda ko‘rsatma axloqqa tayanganlar kazo-kazo bo’lib ketadi, mansabdorligu nomdorlik bo’lishadi, davlat mukofotlari olishadi. Lekin axloqning o’ziga suyanganlar, hamma narsadan qolib ketadi va ko‘p hollarda ular bilan hech kimning ishi yo‘qdir. Shu sababli ham hukmdorning axloqqa qurilgan ulug‘ tiynati, betakror ulug‘vorligi bo’lishi va joylardagi faqat axloq bilan ish ko‘ruvchi ravshan ko‘zlari bo’lishi kerakki, gohida nimagadir munosiblarni adolatli tanlashsinki, oddiy fuqaro inson ekanligini his etsin va bu oddiy fuqaroga baxtiyorlik ato etsin, oddiylkda ham inson o’zini unutmasligini hammaga ko‘rsatib qo‘ysin. Chunki bu oddiy xalqqa oid bo’lgan ish bo’lardi va bu ko‘rgazma, ko‘rsatmaga qurilgan doimiy siyosiy faoliyat emasligi ayon bo’lsin.

Shuningdek, biz ta’kidlagan, yuqoridagi ikkinchi toifani faqatgina axloq va axloqiy qonuniyatlar boshqarsa, davlat va jamiyatga ko‘p foydalar keltirishi mumkin. Xususan, ilm-fan yo‘nalishida o‘z maktabini asoslagan shaxslarni o‘sha sohaga oid eng yuqori mansabgacha ko’tarsa bo’ladi – chunki ular ilmida, fanda o‘z panjasining izini qoldirganlar bo’lib, sherxonlik tabiati ufurib turadi – hamma ham va har kuni ilm-fanda yangilik qilayotgani yo‘q, yoki ilm-fanda maktab yaratayotgani yo‘q.

Chinakam olim kishilarning rahbarlikka erishishi, u mas’ul bo’lgan sohani gullatadi, xodimlarini davlatdan rozi qiladi. Zolim kishilarning rahbarlikka minishi, u mas’ul bo’lgan sohani o‘ldiradi, nafaqat, xodimlarini, balki, u muomalaga kirishgan barcha soxa odamlarini davlatdan norozi qiladi. Ko‘pincha no‘noq va kaltabin kishilarning “sabr tugunchasi” qisqa bo’ladi, zulm qiladi va zulmni oqlaydi. Chunki zulmkor boshqa zulm evaziga ishga kelgan bo’ladi – buni yuqorida pora haqidagi mulohazada aytib o‘tdik. Aslida, haqiqiy olim kishi aslo mansabu dovrug‘ ortidan chopmaydi ham, unga buning aslo keragi yo‘q – uning ilmi, ijodi va qiladigan, tuganmaydigan ishlari bo’ladi. Ilm haqiqiy olim kishining maslagidir va qiladigan ishidir.

To'g'ri, ilmiy ishlar son-hadsiz himoya qilinishi mumkin va buni qo'llash kerakdir, soni, mayli ko'paysin, biroq ilmga oid ilmiy yo'nalish, ilmiy maktabni hamma ham yaratavermaydi. Ilmni va ilmiy maktabni yaratdimi, (qat'iy axloqqa suvandimi – kuchli axloqiy tayanchsiz olim yangi ilm yarata olmaydi, bitta bo'lsin yangi fanni ilmiy ishining o'zi bilan olib kirdimi, demak), davlat bu kabi olimni xohlagancha boshiga ko'tarsa, ehtirom ko'rsatsa, arziydi va bundan boshqa loyiq ishning o'zi yo'qdir. "Elchining siyrati va fikri podshohning siyrati va fikridan dalil"[6:103] bo'lsa, olimning siyrati va fikri podshohning siyrati va fikrini butkul tashkil etgan axloqdan iborat bo'lishi kerak.

Keyin ilmiy maktab yaratganlarni, ma'lum sohada ixtiro qilganlarni, yangi ijod yo'nalishini olib kirganlarni va shu kabi davlat va jamiyat hayotida nimadir yaxshilikka xizmat qiluvchi ijod mahsulotlarini yaratganlarni tirikligida qadrlash kerak, toki, ular inson – aziz, uning qadri ulug'ligini bilishsin, his qilishsin. Dastavval inson hissiy mavjudotdir. Agarki, yuqorida aytilgani kabi haqiqiy olim, yo san'atkor, yo hunarmand, yo bog'bon, yo tadbirkor, yo ixtirochi kabi munosib noyob ijodkor dunyodan o'tgan bo'lsa, uning nomiga hurmat bajo keltirish, davlat darajasida mukofotlash ham kerakki, yosh avlod kimning izidan borishini o'ziga aniq tasavvur qilishi kerakdir. Ibrat mafkuradir, quruq siyosatning o'zi emasdir.

Siyosat bu mafkuradir, yoki aksincha, degan R.Aron tamoyili amaliy siyosatda eskirdi, balki, nazariyada xohlagancha o'rganish mumkindir. Hozirgi kunda konservativ ruhdagi innovatsion mafkura kerakdir, buning asoslari esa milliy g'oyaning o'ziga, evrilishiga oid bo'lishi kerakdir, uning ayrim jihatlarini shu ishda chizib ko'rsatdik.

Haqiqiy olimlar, ijodkorlar, iste'dodlar har doim hurmat-izzatga loyiq kishilardir va jamiyatda ularga nisbatan yuksak ehtirom hissini va madaniyatini shakllantirish kerakdir. Chunki ular bunga arziydi va loyiq ish qilgandirlar. N. Makiavelli yozadi: "shuningdek, hukmdor noyob iqtidor egalariga, xislatli odamlarga homiylik qilishi, biron hunar yoki san'atda yuksak darajaga ko'tarilgan odamlarga hurmat-e'tibor ko'rsatishi kerak. U fuqarolarni xotirjam savdo-sotiq qilishga, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga undashi kerak, toki ular uy-joylarini birov tortib olishidan qo'rqmay, ularni obod qilishsin, boshqalari esa birov ularga soliq solib, xonavayron qilishidan qo'rqmay, savdo-sotiqni yo'lga qo'yishsin..." [3:120-121]. N. Makiavelli o'z davriga xos bo'lgan davlatchilik nuqtai nazaridan fikr yuritgan, lekin ushbu fikridan ayrim ratsional mag'zni olish mumkin, albatta.

Shuningdek, N. Makiavelli siyosiy mantig'ida xalqni ichki nizolar bilan boshqarib turish rejasi ham tavsiya etilgan, chunki xalq o'zaro nizoda band bo'ladi va hukmdorga bosh ko'tara olmaydi – bu eng johil, kaltabin va mustabid siyosat usulidir. Masalan, Venesiyaliklar g'velf va

gibellinlar o'rtasidagi nizolarni rag'batlantirib turishganini aytadi: "ular ishni qon to'kishgacha olib bormagan holda ikki tomonni bir-biriga gij-gijlashardi, chunki tafriqa bilan band fuqarolar hukmdorga qarshi birlasha olishmas edi" [3:113]. Bu usulni N.Makiavelli hukmdorning zaifligi bilan izohlab, g'alaba qozonishning bu yo'li zararli ekanligini ta'kidlaydi: "chunki kuchli va qat'iyatli hukmdor hech qachon tafriqaga yo'l qo'ymaydi; nizolar tinchlik paytida hukmdorga foydali bo'lishi mumkin, chunki fuqarolarni qo'lda tutib turishga imkon beradi, biroq uning zarari urush paytida namoyon bo'ladi" [3:113].

Shubha yo'qki, davlat siyosatida hukmdor har doim boshqalarga maslahat solishi, "biroq buni boshqalar istaganda emas, o'zi xohlaganda" [3:127] qilishi kerak. Shuningdek, hukmdordan hayiqmagan davlat mulozimlari uni qiyin sharoitda sotib ketadi, shu sababli ham hukmdor "hamma narsa haqida so'rashi" va mulozimlarining "javoblarini eshitishi, ammo qarorlarni faqat o'zi va o'z fikridan kelib chiqib qabul qilishi kerak" [3:124]. Bu o'rinda mutafakkir "hukmdor fuqarolarga yoqmaydigan ishlarni boshqalarga yuklab, xalqqa yoqadigan ishlarni o'zi bajarishi lozim"[3:102] degan xulosasi siyosatning oltin qoidasiga aylanib ketgan. Bu siyosatning ichki sterjeni militarizm yoki yakkahokimlik g'oyalaridan butkul xalos bo'lmaganini ko'rsatadi – bu degani jahon siyosatida zamonaviy siyosiy hukmdorlar siyosiy maqsadga erishish uchun kuch ishlatishni o'zi uchun oqlashganini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Jahon siyosatining ko'pgina zamonaviy siyosatchilari "terrorizm", "ommaviy qirg'in quroli", "giyohvandlik savdosi" kabi siyosiy terminlarni, ular mavjud yoki mavjud bo'lmasligidan qat'iy nazar, o'zlari kashf qilib, o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun yollanma toifalarni tayyorlab, u yoki bu mintaqaga bosqin, yoki o'z xalqlarini iskanjada tutib turish uchun ham o'zlari qon to'kish ishlarini uyushtirishdi – bu Sobiq Ittifoq qulagandan beri zamonaviy xalqaro va milliy siyosatlarning ichki mezonlariga aylanib ulgurgan edi. Ekspertlar, 2001 yil 11-sentyabrdagi "qonli seshanba" kunini, Iroqning bosib olinishini va boshqa ko'plab shu kabi milliy, mintaqaviy va xalqaro siyosiy hodisalarni, shunday izohlashgan edi. Bu o'rinda zamonaviy "hukmdorlar" boshqalarni ayblab, o'zlari osongina "xaloskor", "qahramon" yoki "ideal"ga aylanib qolishgandi, xalqini esa osongina gumrohga aylantirib, bemalol podshohlik qilishda davom etishdi. Bu, biz bilgan zamonaviy demokratik davlatlarning siyosati tahlilidir.

N.Makiavelli yozadi: "Boshqacha qilib aytganda, kimdir shaxsiy hayotida yaxshimiyomonmi biron ish qilsa, uni shunday mukofotlash yoki jazolash kerakki, bu narsa odamlarning xotirasida imkon qadar uzoqroq qolsin"[3:118]. Chunki jazolangan o'ta qattiq jazolanishi va xalq orasida sharmanda qilinishi, yoki mukofotlangan shu qadar ko'p shon-shavkatga ega bo'ladiki, har ikki holatda ham jazolangan o'zi aybdor qilinadi, mukofotlangan ham o'zi qobiliyati orqali

erishgan, degan fikr ijtimoiy fikr yoki milliy xotiraga singdiriladi – bu esa har ikki holatda ham hukmdorni ajoyib va tengsiz yakkayu yagona podshoh sifatida xalq ko‘z o‘ngida gavdalandiradi – buni siyosat ilmida zamonaviy siyosiy texnologiya, deyishimiz mumkin. Bu haliyam siyosat, uning har qanday turi, insonmarkazlashuv tamoyiliga yaqin kelmaganini ko‘rsatadi, vaholangki, siyosat, har doim inson manfaatlari va farovonligi uchun mavjuddir, degan tamoyillar jahon siyosati va keng siyosiy faoliyatida bot-bot yangraydi ham.

N.Makiavelli o‘z davrining farzandi bo‘lishi bilan birga, o‘ta ayyor va faqatgina tor siyosiy manfaatlarni ko‘zlovchi shaxs bo‘lgan. Aristotel “Siyosat” asarida quldorlikni qanday oqlagan bo‘lsa, N.Makiavelli ham yakka hukmronlikka qurilgan despotizmni oqlagan, urushni yaqqol targ‘ib qilib chiqqan bo‘lib, ko‘proq siyosiy hokimiyatni saqlab qolish va kuchaytirish yo‘llari, usullari haqida hukmdorning “qulog‘i”ga shipshitiladigan, ayniqsa, ko‘pincha aytilmaydigan gaplarni asar qilib yozgan. Masalan, “...urush hukmdor boshqaga ishonib topshira olmaydigan yagona majburiyatdir”[3:80-81], deydi.

N.Makiavelli ommaga siyosatni real hodisa sifatida hukmdorning tabiati va mayliga bog‘lagan, masalan, u yozadi: “xalqning mohiyatini anglab yetish uchun hukmdor bo‘lish, hukmdorlarning tabiatini tushunish uchun esa xalqqa mansub bo‘lish darkor” [3:13]. Biz, xalqqa mansub holda hukmdor tabiatiga oid ayrim novatsiya va innovatsiyalarni tahliliy mulohaza tarzida keltirib o‘tdik.

Yaxshi hukmdor esa o‘z xalqini bunyodkor ishlarga, albatta, qobiliyatiga yarasha, yaxshigina maoshlar evaziga, band qilib qo‘ygan hukmdordir. Chunki xalq bir narsa bilan band bo‘lishi kerakki, agarki, bunyodkorlik yoki shaharsozlik bilan umrbod band qilmasangiz va bunga yetarlik mablag‘ bermasangiz, xalq boshqa ishlar bilan band bo‘ladi, pulni boshqa joydan qidiradi va boshqa hukmdorlar foydasiga uy quradi, jamiyat ichida jinoyatchilik kabi huquqbuzarliklar va boshqa illatlar oshadi va ho.k.z.

Dono hukmdor shundayki, o‘z fuqarosi o‘zining yurtida uy qursin yoki qurdirsin, o‘zi qursin va o‘zi va avlodlari uchun qursin, chunki xalq ruhiyatini azaliy qadriyatlar tashkil etganda, uni bunyodkorlikka safarbar etish, ezgu bunyodkor ishlarga band qilib qo‘yish chinakamiga ulug‘ ishlarga undaydi va xalq o‘z qo‘li bilan o‘zini farovonlikka olib chiqadi – buning uchun dono hukmdor barcha sharoit va imkoniyatlarni o‘z xalqiga beminnat taqdim etishi kerak. Bu yerda hukmdorning ishi adolatni ta‘minlash va tinchlikni poyidor (barqaror) etishdir, xolos. Albatta, bu kuchli iroda mahsulidir. Sababi Nizomulmuluk yozganidek, “podshohlik qilishda kuchli iroda kuchli lashkardan ham yaxshiroqdir”[6:93]. Shak yo‘qki, bunday hukmdor qanday nom bilan

atalmasin, u har doim insonparvar hukmdor, degan nomdan boshqasi bilan atalmaydi va xalqining mehrini qozonadi. Adolatli hukmdorlar shunday bo'ladi.

Demak, bunday holatda axloq adolat va tinchlik asosini tashkil etadi va bunday davlat, insonparvar davlat hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Знание.Вики. Internet manbaa, URL: <https://znanierussia.ru/articles>.
2. Никколо Макиавелли. Государь. Рассуждения о первой декаде тита ливия. О военном искусстве. «ПОПУРРИ». Минск. 1998. 672 с.
3. Никколо Макиавелли. Хукмдор. Таржимон: Абу Муслим. "DAVR PRESS" НМУ. Тошкент. 2022. Б.131.
4. Томас Гоббс. Сочинение в двух томах. том 2. Левиафан, или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. Составитель, редактор издания, автор примечаний В.В.Соколов. Перевод с латинского и английского Н. Фёдорова, А.Гутермана. Академия наук СССР. Институт философии. «Мысль». Москва. 1991. 733 С.
5. Кайковус. Қобуснома. Нашрга тайёрловчилар: С.Долимов, У.Долимов. Тошкент. "Янги аср авлоди". 2022. Б. 193.
6. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари: Шодмон Воҳид Хусайнзода, Афтондил Эркинов. Тошкент. "Адолат". 1997. Б. 66.
7. Қиём Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки жилдлик. I. «Ўзбекистон фойласуфлари миллий жамияти» нашриёти «Маънавият» нашриёти Тошкент – 2023. Б. 699.
8. Sharipov Dilshod Vaxshilloevich. Uyg'onish davri tinchlik qonuniyatlari va tinchlik loyihalari tahlili (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Monografiya. "Kamolot" nashriyoti. Buxoro. 2025. 132 b.